

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY
MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIV-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIVOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

STATISTIKA

YO‘NALISHI

«MILLIV HISOBLAR TIZIMI»

MODULI BO‘YICHA

**O‘QUV–USLUBIV
MAJMUA**

Toshkent 2022

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: TDIU i.f.n.,dots. A.H.Ayubjonov
TDIU katta o'qituvchi U.A. Salixodjayeva

Taqrizchi: i.f.n..dots.X.Xo'jaqulov

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur.....	4
II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari.....	10
III. Nazariy materiallar.....	16
IV. Amaliy mashg‘ulot materiallari	30
V. Keyslar banki	43
VI. Mustaqil ta’lim mavzulari	57
VII. Glossariy	59
VIII. Adabiyotlar ro‘yxati.....	62

ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli, 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli Farmonlari, 2022 yil 19 avgustdagi «Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ining kengaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 463-sonli qaroridagi, 2021 yil 23 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida byelgilangan ustuvor yo‘nalishlar va vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu orqali oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o‘zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq kompetensiyalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Milliy hisoblar tizimi modulining maqsad va vazifalari:

- “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifati ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;
- “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” yo‘nalishida o‘quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Milliy hisoblar tizimi” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Maxsus fanlar bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga doir statistik masalalarni yechishni;
- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitini o‘rganishda xalqaro statistika amaliyotida qo‘llanadigan asosiy kategoriyalar va tushunchalarni yoritishni;
- YAIM deflyatori va inflyasiya darajalarini hisoblashni;
- turli iqtisodiy statistik ma’lumotlarni tahlil qilishni;
- iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotining ilmiy-amaliy asoslarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- YAIM, MD, SMD, ixtiyordagi daromad – makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash;
- tarmoqlararo balans tuzish uslubiyatini qarab chiqish, O‘zbekiston statistika amaliyotida MHT joriy qilish muammolarini o‘rganib chiqish;
- aholi, mehnat resurslari va ularni soni, tarkibi, harakati ko‘rsatkichlarini hisoblash;
- ishsizlik, bandlik va ular darajalari ko‘rsatkichlari o‘rganish;
- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida iqtisodiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali takomillashtirish bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish kabi **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- MHT, uning hisoblamalari, tasnifi va tuzilishini, ishlab chiqarish, muomila xarajatlarini aniqlash;
- YAIM deflyatorini hisoblash;
- innovatsion rivojlanish jarayonlarini tadqiq qilishda statistik usullardan foydalanish;
- makroiqtisodiy jarayonlarni ifodalash uchun jahon statistika amaliyotida qo‘llanadigan MHT hisoblamalarini tuzish prinsiplari va uslubiyatini o‘rganish;

- iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashda maxsus statistik usullardan foydalanishga oid **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- iqtisodiyotni moderinazatsiya qilish jarayonlarini tushuntirib berish hamda iqtisodiyot sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarni o'qitish jarayoniga nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash;
 - statistik ko'rsatkichlarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularni keng jamoatchilikka tushuntirish;
 - statistik tahlillar asosida tarmoqlar va korxonalarining rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
 - YAIM ni hisoblashning statistik usullarini qo'llay olish;
 - YAIM deflyatorini va narx indekslarini hisoblash;
 - MHTda qo'llanadigan asosiy tasniflash va guruhlash va ularni iqtisodiy tahlildagi ahamiyatini ko'rib chiqish, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, daromadlarni hosil qilish, taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish, iste'mol va jamg'arma jarayonlarini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini bayon etish **kompetensiyasiga** ega bo'lishi zarur.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Milliy hisoblar tizimi” kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi “Makroiqtisodiy siyosat va barqaror iqtisodiy o'sish”, “Tizimli tahlil usullari” va “Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning umummutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy ekonometrik modellarni tuzish va qo'llashdagi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholash hamda optimal qarorlar qabul qilish va prognozlashga doir umummutaxassislik kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy soat	Masofaviy ta'lim soatlari	Jami auditoriya soatlari	Jumladan:			Mustaqil ta'lim
					Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1.	MHT hisoblamalari tarkibi va ularni tuzish prinsiplari	8	4	4	2	2		
2.	Birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamalari	8	4	4	2	2		
3.	Tashqi dunyo sektori hisoblamalari	14	6	8	4	4		
	Jami:	30	14	16	8	8		

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. MHT hisoblamalari tarkibi va ularni tuzish prinsiplari (2 soat)

MHTda hisoblama tushunchasi va uni tuzish qoidalari. Ikki yoqlama yozish prinsipi – MHT hisoblamalarini tuzishda uslubiy asos sifatida.

MHT hisoblamalarining tarkibi. Ichki iqtisodiyot va uning sektorlari hisoblamalari. Joriy operatsiyalar hisoblamalari (ishlab chiqarish hisoblamasi, birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamalari, daromadlarni qayta taqsimlash hisoblamalari, daromadlardan foydalanish hisoblamalari). Jamg'arish hisoblamalari (sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi, moliya hisoblamasi, aktivlar hajmidagi boshqa o'zgarishlar hisoblamasi, qayta baholash hisoblamasi).

2-mavzu. Birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamalari. (2 soat)

Daromadlarni hosil qilish hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Yalpi ichki mahsulot (yalpi qo'shilgan qiymat). Ishlab chiqarish va import uchun subsidiyalar (mahsulotlar uchun subsidiyalar, ishlab chiqarish uchun boshqa subsidiyalar, import uchun subsidiyalar). Yollanma xodimlarning mehnat haqi (yalpi ish haqi, korxonalar va tashkilotlarning ijtimoiy ta'minotga haqiqiy ajratmalari, ijtimoiy ta'minotga hisoblangan shartli ajratmalar). Mahsulot va import uchun soliqlar (mahsulotlar uchun soliqlar, ishlab chiqarish uchun boshqa soliqlar, import uchun soliqlar). Iqtisodiyotning yalpi foydasi (yalpi foyda yoki yalpi aralash daromad). Asosiy kapital iste'moli. Iqtisodiyotning sof foydasi (sof foyda yoki sof aralash daromad).

Birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Iqtisodiyot yalpi foydasi (yalpi foyda yoki yalpi aralash daromad). Yollanma xodimlarning mehnat haqi. Ishlab chiqarish va import uchun soliqlar. "Tashqi dunyo"dan olingan va "tashqi dunyo"ga to'langan mulk daromadlari: foiz; korxonalar taqsimlangan daromadi; sug'urta polislari egalariga tegishli mulkdan olingan daromad; renta. Yalpi milliy daromad (yalpi birlamchi daromadlar qoldig'i).

3-mavzu. Tashqi dunyo sektori hisoblamalari. (4 soat)

Tovar va xizmatlar bilan tashqi operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Tovar va xizmatlar importi. Tovar va xizmatlar eksporti. Tovar va xizmatlar bo'yicha qoldiq.

Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Tovar va xizmatlar bo'yicha qoldiq. Tovar va xizmatlar importi. "Tashqi dunyo"ga to'langan birlamchi daromadlar va joriy transfertlar: norezident yollanma xodimlar mehnat haqi; ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar; mulkdan olingan daromadlar; joriy transfertlar. "Tashqi dunyo"dan olingan birlamchi daromadlar va joriy transfertlar: rezident yollanma xodimlarning mehnat haqi; ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar; mulkdan olingan daromadlar; joriy transfertlar.

Sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Joriy operatsiyalar bo'yicha qoldiq. "Tashqi dunyo"dan olingan kapital transfertlar. "Tashqi dunyo"ga to'langan kapital transfertlar. Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarni sof xaridi. Sof kreditlash yoki sof qarz olish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. MHT hisoblamalari tarkibi va ularni tuzish prinsiplari (2 soat)

MHTda hisoblama tushunchasi va uni tuzish qoidalari. Ikki yoqlama yozish prinsipi – MHT hisoblamalarini tuzishda uslubiy asos sifatida.

MHT hisoblamalarining tarkibi. Ichki iqtisodiyot va uning sektorlari hisoblamalari. Joriy operatsiyalar hisoblamalari (ishlab chiqarish hisoblamasi, birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamalari, daromadlarni qayta taqsimlash hisoblamalari, daromadlardan foydalanish hisoblamalari). Jamg'arish hisoblamalari (sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi, moliya hisoblamasi, aktivlar hajmidagi boshqa o'zgarishlar hisoblamasi, qayta baholash hisoblamasi).

2-mavzu. Birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamalari. (2 soat)

Daromadlarni hosil qilish hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Yalpi ichki mahsulot (yalpi qo'shilgan qiymat). Ishlab chiqarish va import uchun subsidiyalar (mahsulotlar uchun subsidiyalar, ishlab chiqarish uchun boshqa subsidiyalar, import uchun subsidiyalar). Yollanma xodimlarning mehnat haqi (yalpi ish haqi, korxon va tashkilotlarning ijtimoiy ta'minotga haqiqiy ajratmalari, ijtimoiy ta'minotga hisoblangan shartli ajratmalar). Mahsulot va import uchun soliqlar (mahsulotlar uchun soliqlar, ishlab chiqarish uchun boshqa soliqlar, import uchun soliqlar). Iqtisodiyotning yalpi foydasi (yalpi foyda yoki yalpi aralash daromad). Asosiy kapital iste'moli. Iqtisodiyotning sof foydasi (sof foyda yoki sof aralash daromad).

Birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Iqtisodiyot yalpi foydasi (yalpi foyda yoki yalpi aralash daromad). Yollanma xodimlarning mehnat haqi. Ishlab chiqarish va import uchun soliqlar. "Tashqi dunyo"dan olingan va "tashqi dunyo"ga to'langan mulk daromadlari: foiz; korxon

taqsimlangan daromadi; sug'urta polislari egalariga tegishli mulkdan olingan daromad; renta. Yalpi milliy daromad (yalpi birlamchi daromadlar qoldig'i).

3-mavzu. Tashqi dunyo sektori hisoblamalari. (4 soat)

Tovar va xizmatlar bilan tashqi operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Tovar va xizmatlar importi. Tovar va xizmatlar eksporti. Tovar va xizmatlar bo'yicha qoldiq.

Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Tovar va xizmatlar bo'yicha qoldiq. Tovar va xizmatlar importi. "Tashqi dunyo"ga to'langan birlamchi daromadlar va joriy transfertlar: norezident yollanma xodimlar mehnat haqi; ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar; mulkdan olingan daromadlar; joriy transfertlar. "Tashqi dunyo"dan olingan birlamchi daromadlar va joriy transfertlar: rezident yollanma xodimlarning mehnat haqi; ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar; mulkdan olingan daromadlar; joriy transfertlar.

Sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari. Joriy operatsiyalar bo'yicha qoldiq. "Tashqi dunyo"dan olingan kapital transfertlar. "Tashqi dunyo"ga to'langan kapital transfertlar. Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarni sof xaridi. Sof kreditlash yoki sof qarz olish.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish;
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

№	Baholash turlari	Maksimal ball	Ballar
1	Keys topshiriqlari	2.5	1.2 ball
2	Mustaqil ish topshiriqlari		0.5 ball
3	Amaliy topshiriqlar		0.8 ball


II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari

Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinuvi.

Muzokaralarni o‘tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs

Bahs – o‘z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to‘g‘ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o‘rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning daliligini, tushuncha va atamalarining aniqligiga e‘tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o‘tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so‘zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o‘z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so‘zlovchi va opponent fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo‘shgan hissasi to‘g‘risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

«Aqliy хужум»

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo‘roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutulish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

• **To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta‘minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

• **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlariga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

• Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.


Ko‘rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar



**Кластер
(Кластер – тутам, боғлаш)**
 Маълумот харитасини тузиш ва воситаси – барча фикр конституциясини фокуслаш ва аниқлаш учун қандайдир асосий омил атрофида ғояларни йиғиш. Билимнинг фаоллашишини

Кластерни тузиш қоидалари билан танишади. Аудитория доскаси ёки катта қоғоз варағи марказида калит сўзлар 1-2

Калит сўзлар билан ассоциация бўйича ён томондан кичкина ҳажмдаги айланага “йўлдошлар” ёзилади – ушбу мавзу билан алоқадор сўз ёки сўз бирикмаси. Улар чизик билан “бош” сўзга боғланилади. Ушбу “йўлдошлар”да “кичик йўлдошлар” ҳам бўлиши мумкин. Ёзувга ажратилган вақт тугагунга ёки ғоя йўқотулмагунча давом эттирилади.




Тоифали жадвал
 Тоифа – мавжуд ҳолат ва муносабатларни акс эттирадиган белги (умумий).
 - ажратилган белгиларга кўра олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди.
 - тизимли мушоҳада қилишни, маълумотларни

Тоифали шарҳни тузиш қоидалари билан танишилади. Ақлий ҳужумдан сўнг (кластерга ажратиш) мини гуруҳларда янги ўқув материали билан танишилади ва олинган маълумотлар фрагментларини бирлаштиришга имкон берадиган тоифаларни излаш ишлари олиб борилади.

Тоифалар жадвал кўринишида расмийлаштирилади. Ғоя маълумотлар жадвалида тегишли тоифалар бўйича тақсимланади. Иш жараёнида маълум бир тоифалар номлари ўзгартирилиши

Ишнинг натижавий тақдими

Venn diagrammasi



SWOT-tahlil jadvali

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxonada rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko‘ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog‘liq bo‘lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog‘liq bo‘ladi. Uni qo‘llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o‘qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxonada rivojlanishi yoki muayyan biznes loyahasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to‘siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta‘siri hamda jiddiylikiga mos kelishi lozim bo‘ladi.

So‘ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni yengib o‘tish vositalari strelka ko‘rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o‘ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo‘lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo‘laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys.

Amaliy vaziyat. Innovatsion tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtasida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rilash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'rilaysiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslaxatsiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU. MHT HISOBLAMALARI TARKIBI VA ULARNI TUZISH PRINSIPLARI.

- 1. MHT da hisoblama tushunchasi va uni tuzish qoidalari.**
- 2. Ikki yoqlama yozish prinsipi – MHT hisoblamalarini tuzishda uslubiy asos ekanligi.**
- 3. MHT hisoblamalari tarkibi.**

Kalit soʻzlar: Ikki yoqlama yozish prinsipi, yalpi milliy daromad, milliy boylik, tovarlar va xizmatlar yigʻmaschyoti, yalpi ishlab chiqarish.

1. MHT da hisoblama tushunchasi va uni tuzish qoidalari.

MHTda schyotlar muhim oʻrin tutadi. Ular rezident institutsion birliklar oʻrtasida boʻladigan oʻzaro iqtisodiy operatsiyalarni qayd etish uchun ishlatiladi. qayd etilayotgan operatsiyalar rezident va norezident institutsion birliklar oʻrtasida boʻlayotgan iqtisodiy operatsiyalarni ham qamrab oladi. Schyotdagi yozuvlar sistemada qabul qilingan tarmoq, sektor (quyi sektor) va boshqa klassifikasiyalar boʻyicha (har bir iqtisodiy operatsiya boʻyicha emas) operatsiyalar guruhlari (yalpi ishlab chiqarish, isteʼmol, eksport va h.k.) boʻyicha umumlashgan holda yozib boriladi. Ayrim yozuvlar ikki iqtisodiy birlik oʻrtasidagi operatsiyalar natijalari boʻlmay, tabiiy ofat yoki inflyasion jarayonlar oqibatida aktivlarning oʻzgarishi natijalarini ifodalaydi. Bundan tashqari, bir qancha koʻrsatkichlar iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, umumlashtirish va analitik hisoblash asosida topilib, schyotlarda yoziladi. Masalan: qoʻshilgan qiymat, jamgʻarma, birlamchi daromad koʻrsatkichlari balans metodi boʻyicha jami resurslar va ularning ishlatilishi oʻrtasidagi farq sifatida hisoblab topiladi. MHTda eng muhim koʻrsatkichlar agregatlar deb yuritiladi. Bunga misol sifatida Yalpi ichki mahsulot, Yalpi milliy daromad, Milliy boylik koʻrsatkichlarini keltirish mumkin.

2. Ikki yoqlama yozish prinsipi – MHT hisoblamalarini tuzishda uslubiy asos ekanligi.

Schyotlarning yozilish shakli buxgalteriya schyotlariga oʻxshash. Ular T-koʻrinishda boʻlib, uning bir tomonida resurslarni, ikkinchi tomonida ularning ishlatilishini ifodalovchi koʻrsatkichlar yozib boriladi. Schyotlarning ikki tomoni har doim balanslashtiriladi. Balanslashtirish 2 xil usul bilan amalga oshiriladi: 1-balans usuli, yaʼni schyotning ishlatilishi tarafiga balanslashtiruvchi koʻrsatkich yoziladi. Bu koʻrsatkich keyingi schyotga resurs sifatida oʻtkaziladi. Masalan, ishlab chiqarish schyotida qoʻshilgan qiymat koʻrsatkichi balanslashtiruvchi koʻrsatkich sifatida aniqlanadi va keyingi daromadlarning hosil boʻlishi schyotiga resurs sifatida yozib

qo'yiladi. 2-usul 1-usuldan farq qiladi. Bu usulda schyotlarning resurs va ishlatilishi tarkibida keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indilari bir- biriga teng kelishi lozimligi asosida tuzilganligi, o'z-o'zidan bu schyotlarni muvozanatlashtiradi. Bunday schyotga misol tariqasida **Tovarlar va xizmatlar yig'ma** schyotini keltirish mumkin. Bu schyotning resurslar va ishlatilishi ko'rsatkichlar tarkibi shunday tanlanganki, ularni to'g'ri hisoblab topilganda ikkala tomon o'zaro muvozanatlashadi. Lekin, amaliyotda ko'rsatkichlarni aniqlash manbalari turli va ko'rsatkichlarni hisoblashda ekspert baholash usullari qo'llanilgani sababli "resurslar" va "ishlatilishi" ko'rsatkichlari yig'indilari bir-biriga har doim ham teng (yoki yaqin) bo'lavermaydi. Oradagi farq odatda statistik xatolik deb ataladi. Bu xatolikni katta-kichikligiga qarab, hisoblarning qanday darajada aniq bajarilganligini bilish mumkin.

3. MHT hisoblamalari tarkibi.

MHTda iqtisodiyot sektorlari, tarmoqlari, tashqi dunyo va butun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha turli schyotlar tuziladi.

Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha joriy schyotlar, jamg'arish schyotlari, aktivlar va passivlar balanslari tuziladi.

Joriy schyotlarga quyidagi schyotlar kiradi:

ishlab chiqarish;

daromadlarning shakllanishi;

birlamchi daromadlar taqsimoti;

daromadlarning qayta taqsimoti:

- *pul holiday daromadlarni qayta taqsimlash;*
- *natura holiday daromadlarning qayta taqsimoti;*
- ixtiyordagi pul daromadlarining ishlatilishi;*
- tuzatilgan ixtiyordagi daromadning ishlatilishi.*

Jamg'arish schyotlari quyidagilardan iborat:

kapital xarajatlar (operatsiyalar) schyoti;

moliya schyoti;

aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti:

- a) *aktiv va passiv hajmlarida boshqa o'zgarishlar schyoti;*
- b) *aktiv va passivlarni qayta baholash schyoti.*

Aktivlar va passivlar balanslariga quyidagilar kiradi:

davr boshiga aktivlar va passivlar balansi;

davr oxiriga aktivlar va passivlar balansi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha faqat 2ta schyot: ishlab chiqarish va daromadlarni shakllanishi schyotlari tuziladi.

Tashqi dunyo sektori bo'yicha **joriy operatsiyalar schyoti, kapital xarajatlar schyoti va moliya schyoti** tuziladi.

Mamlakat miqyosida yuqorida keltirilgan barcha schyotlar bilan birgalikda **tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti** tuziladi.

4. Ishlab chiqarish konsepsiyasi – MHTni nazariy asosi ekanligi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish deganda, ishlab chiqaruvchi birlik tomonidan mehnat, mablag‘, tovar va xizmatlar sarflari natijasida boshqa turdagi tovar yoki xizmatni yaratib, iste‘molchiga (pul yoki tovar evaziga, yoki bepul) yetkazib berish jarayoni tushuniladi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish natijasida tovarlar va xizmatlar yaratiladi. Ularni bir-biridan farqlash uchun ularning xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Tovarlar - egalik huquqi tarqatilishi mumkin bo‘lgan fizik predmetlardir. Tovarlar moddiy bo‘lganligi uchun ularni saqlash mumkin. Tovarlariga iste‘mol talabining bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Agar ularga iste‘mol talabi bo‘lmasa, ulardan hech qanday naf bo‘lmaydi. Ular har doim ham ishlab chiqarilgan davrlarida sotilavermaydilar. Shu sababli bu omilni tovarlar ishlab chiqarish hajmini hisoblayotganda e‘tiborga olish zarur.

Xizmatlar - iste‘molchi talabi asosida bajariladigan har xil faoliyat turlari hisoblanadi. Xizmatlarni saqlab bo‘lmaydi. Ular aksariyat iste‘molchilarga bevosita ko‘rsatiladi. Xizmatlar boshqa birliklar tomonidan ehtiyoj bo‘lganda bajariladi. Xizmatlar natijasida xizmatni oluvchida va uning buyumlarida turli xil o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Masalan: a) buyumlarni ta‘mirlash natijasida buyum yaroqli holga keladi; b) davolash natijasida uning salomatligi o‘zgaradi; v) maorif xizmati natijasida uning bilimi oshadi; g) sug‘urta natijasida iqtisodiy holati turg‘unligi ta‘minlanadi va h.k.

Umuman aytganda, xarakteri iqtisodiy faoliyat nuqtai nazardan ma‘noga ega bo‘lmagan jarayonlar iqtisodiy ishlab chiqarish hisoblanmaydi. Bunday jarayonlarga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

- a) inson ishtirokisiz tabiiy jarayonlar natijasida tovarlarning ko‘payishi;
- b) insonning o‘ziga o‘zidan boshqalar qilolmaydigan faoliyatlar (ovqat yeyish, sport bilan shug‘ullanish uhlash va h.k.),
- v) tashqi omillarni ta‘siri, ya‘ni tashqi omillar (inflyasiya, valyuta kurslari, baholar o‘zgarishi) natijasida aktivlar qiymatining o‘zgarishi;
- g) o‘g‘irliklar, poraxo‘rlik va ta‘magirlik;
- d) bozor ishlab chiqaruvchilarning o‘z binolarini ijaraga berishlari.

5. MHTda ishlab chiqarish sohasining chegaralari va uning o‘ziga xos jihatlari.

Iqtisodiy ishlab chiqarish ko‘lami juda keng va rang-barang. Uni hisobga olish ancha murakkab va keng qamrovli masala hisoblanadi. Bu masalani biroz soddalashtirish maqsadida MHTda iqtisodiy ishlab chiqarishni hisobga olish birmuncha chegaralangan. 1993 yilda amaliyotga kiritilgan MHTda quyidagi faoliyatlar aslida xarakteriga ko‘ra iqtisodiy ishlab chiqarish bo‘lsa ham, ular ishlab chiqarish sifatida hisobga olinmaydi:

- uy xo'jaliklari a'zolari tomonidan o'zlari va uy xo'jaligi a'zolari uchun bajariladigan xizmatlar (uyni saranjom va sarishta ushlab bilan bog'liq ishlar, taom tayyorlash, kir yuvish, dazmol qilish va h.k.);

- uy a'zolari tomonidan iste'mol tovarlarini ta'mirlash (dazmol, radio, televizor va shu kabilar);

- uyni yengil ta'mirlash ishlari;

- uy xo'jaligi a'zolariga transport va boshqa xizmatlar ko'rsatish.

Amaliy hayotimizda iqtisodiy ishlab chiqarish quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

- boshqa birliklarga sotish, o'zining iste'moli va asosiy kapitalini ko'paytirish maqsadida tovarlar ishlab chiqarish;

- nomoliya xizmatlar ko'rsatish;

- moliya tashkilotlarining faoliyatlari;

- davlat boshqaruv idoralarining faoliyatlari;

- jamoat tashkilotlarining faoliyati;

- uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi uy xizmatchilarining faoliyati;

- uy-joy egalari uylarni holatini saqlash va yaxshilash bo'yicha yuritgan faoliyatlari (ta'mirlash, kapital ta'mirlash, rekonstruksiya va qo'shimcha xonalar qurish).

6. MHTda iqtisodiy faoliyat turlarini tarmoqlari va sektorlar bo'yicha tasniflash.

Mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlarining qanchalik darajada tarkib topganligini va bu munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini bilish muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlariga asoslanib qurilgan har qanday iqtisodiyotda ham, iqtisodiyotning shunday jabhalari borki, ularning bozori yo'q yoki bu sohalarda raqobat muhitini yaratish imkoni yo'q. Misol tariqasida bu sohalarga armiya, milisiya, davlat havfsizlik va boshqaruv idoralarining xizmatlarini keltirish mumkin. Bundan tashqari, davlat aholining ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish maqsadida, ayrim tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil qilib, ularni ishlab chiqarish xarajatlaridan ancha past narxlarda yoki bepul tarqatadi, xizmatlarni bepul yoki xizmat xarajatlaridan ancha past narxlarda ko'rsatadi. Odatda, bunday ishlab chiqarish birliklarining oldiga qo'ygan maqsadi, tovarlarni sotishdan va xizmatlarni ko'rsatishdan foyda olish emas. Ularning maqsadi aholiga yoki aholining ayrim guruhlariga yordam ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Bu birliklar, oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra, tovar va xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va erkin bozor baholarida sotuvchi birliklardan keskin ajralib turadilar. Bundan tashqari, odatda bunday birliklar mahsulot uchun to'lanadigan soliqlardan ozod qilingan bo'ladilar.

MHTda xarakteriga ko'ra bozor uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish sohalari *bozor ishlab chiqarish* sifatida hisobga olinadi. Xarakteriga ko'ra bozor ishlab chiqarish bo'lmagan ishlab chiqarish sohalari *nobozor ishlab chiqarish* sifatida hisobga olinadi. *Nobozor ishlab chiqarishni* bozor ishlab chiqarishdan farqlash uchun quyidagi belgilardan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi birlikning maqsadi foyda olish emas;

- ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatlarni iste'molchiga yetkazilgandan olingan daromad, shu tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish va yetkazishga ketgan sarf-xarajatlarni to'la qoplamasligi.

Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi birlikning o'zining pirovard iste'moli uchun ishlab chiqargan tovar va xizmatlari (uy xo'jaligining o'zi iste'moli uchun yetkazgan mahsuloti, o'zi tomonidan bajarilgan kapital ta'mirlash), nobozor ishlab chiqarish faoliyatini bajarish maqsadida zaxiraga kelib tushgan mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi nobozor ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadi.

Bozor ishlab chiqarish quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni bozor baholarida sotilishi;
- ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni boshqa tovar yoki xizmatlarga bozor baholaridan kelib chiqqan holda almashish (barter operatsiyalari).

Bundan tashqari, bozor ishlab chiqaruvchilarning o'z xodimlariga ish haqi sifatida bergan tovarlar va ko'rsatgan xizmatlari, tayyor mahsulot zaxirasiga tushgan mahsulot, tugallanmagan ishlab chiqarish va asosiy kapitalning yig'ilmasi miqdorlari ham *bozor ishlab chiqarish* tarkibiga kiradi.

7. MHTda iqtisodiy operatsiyalarni tasniflari.

Iqtisodiy operatsiyalar. Institutsion birliklar o'rtasidagi har qanday iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan munosabatlar – iqtisodiy operatsiyalar deyiladi. Iqtisodiy operatsiyalar ikki birlik o'rtasida bo'ladi va ikkala birlik bu munosabatni iqtisodiy operatsiya sifatida qayd etadi. Masalan, A birlik V birlikka 1000 so'mlik tovarni sotdi. Bu tovar ayirboshlash operatsiyasi hisoblanadi. Agar, A birlik rezident institutsion birlik, V - norezident bo'lsa bu operatsiya A uchun eksport V uchun esa import operatsiyasi hisoblanadi. Ma'lumki, iqtisodiyotda minglab institutsion birliklar mavjud. Ular o'rtasida millionlab operatsiyalar bajariladi. MHTda operatsiyalarning har biri alohida-alohida emas, balki ma'lum tartibda guruhlangan holda tarmoq va sektorlar miqyosida qayd etiladi.

Iqtisodiy operatsiyalar quyidagicha guruhlanadi:

- tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ularni ayirboshlash, ishlatish va iste'mol qilish bilan bog'liq operatsiyalar;

- daromad taqsimoti va qayta taqsimot operatsiyalari;

- moliya instrumentlari bilan bog'liq operatsiyalar(moliya aktivlari va passivlariga ega bo'lish, ularning o'zgarishi, kreditlar olish va berish, qarzlarni to'lash, dividendlar va foizlar olish va to'lash, qarzdan voz kechish, aktiv yoki passivlarning inflyasiya va valyuta kurslari o'zgarishi natijasida o'zgarishi va h.k.);

- favqulodda ro'y beradigan hodisalar, tabiiy ofatlar, urushlar natijasida aktivlarning o'zgarishini ifodalovchi boshqa operatsiyalar.

Operatsiyalarga misol qilib, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish, tarmoq va sektorlar o'rtasidagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash, ular o'rtasida daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash, ichki iqtisodiyot sektorlari bilan norezident birliklar(tashqi dunyo sektori) o'rtasidagi eksport, import, investitsiyalar ayirboshlash, ularni qaytarishkabi amaliyotlarni ko'rsatish mumkin.

Operatsiyalarni qayd etishda *oqimlar va zaxiralarni* farqlash lozim.

Oqimlar - kuzatilayotgan ma'lum bir davrdagi iqtisodiy o'zgarishlarni ifodalovchi operatsiyalardir. Masalan, tovar va xizmatni ayirboshlash, aktiv va passivlarning o'zgarishini ifodalovchi operatsiyalar, ma'lum bir davrdagi ishlab chiqarish hajmini yoki olingan (yoki berilgan) daromadlarning miqdorini qayd etuvchi operatsiyalar oqimlarga misol bo'la oladi.

Zaxiralar esa – iqtisodiy va sotsial o'zgarishlarni ma'lum bir sanadagi holatini ifodalovchi operatsiyalardir.

Misol tariqasida, ombordagi mahsulotlarning oy boshidagi yoki oxiridagi holatini, asosiy kapitalning ma'lum sanadagi holatini, aholining yil boshidagi va oxiridagi holatini, mamlakatning oltin va valyuta zaxiralarning ma'lum bir sanadagi holatini ifodalovchi operatsiyalarni keltirish mumkin

Odatda operatsiyalar ikki birlik o'rtasida bo'ladi. Masalan, bir birlik ikkinchi birlikka tovar yoki boshqa aktivni bersa, ikkinchi birlik buning evaziga boshqa aktivni (shu tovar qiymatiga teng pul, tovar, xizmat) beradi yoki shu tovar qiymati miqdorida qarz(majburiyat) bo'ladi. Bunday xarakterdagi operatsiyalar ikki tomonlama operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalarda har doim bir tomonning ikkinchi tomonga *talabi* orsa, o'z navbatida ikkinchi tomonning birinchi tomon oldida *majburiyati* ortadi.

Iqtisodiyotda shunday operatsiyalar borki, bu operatsiyalarda bir birlik ikkinchi birlikka o'z tovar va xizmatlarini, boshqa aktivlarini berganda evaziga ikkinchi birlikdan hech narsa talab qilmaydi, ya'ni birinchi birlikning *talabi*, ikkinchi birlikning esa – *majburiyati* ortmaydi. Bu xarakterdagi operatsiyalar **transfertlar** deyiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Milliy hisobchilikning xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi roli nimadan iborat?
2. MHT va XXB tizimlarining predmeti nimadan iborat?
3. MHT va XXB tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
4. Nima uchun XXB hisobot tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'llab bo'lmaydi?
5. MHT va XXB tizimlarida ishlab chiqarish tushunchasi qaysi jihatlar bilan farq qiladi?
6. Bozor munosabati deganda nimani tushunasiz?
7. Bozor munosabatlarining shakllanganligining asosiy belgilari nimalardan iborat?
8. MHTda iqtisodiy ishlab chiqarish qanday jarayon? Unga misollar keltiring.
9. Nima uchun xizmatlar ko'rsatish iqtisodiy ishlab chiqarish sanaladi?
10. Tovarlar va xizmatlar o'rtasida qanday tafovutlar bor?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va Statistika. Uchebnik. /Pod red. I.I. Yelisyevoy. – M.: Prospekt, 2010. – 448 str.

2. 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

3. Xarchenko N.M. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 s.

4. N.M.Soatov, X.Nabiev, D.Nabiev, G.N.Tillaxo'jaeva. Statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2009. – 568 bet.

5. Nabiyev X., Nabiyev D.X. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T.: Aloqachi, 2009. 512 bet.

6. Natsionalnoye schetovodstvo. /Pod red. B.N.Bashkatova. – M.: FiS, 2009.

7. Yu.N.Ivanov i dr. Sistema natsionalnyx schetov – instrument makroekonomicheskogo analiza. Uchebnoye posobiye/ Pod redaksiyey Yu.N.Ivanova. - M.: Finstatinform, 2006.

8. European Central Bank. Financial Production, Flows and Stocks in the System of National Accounts. // USA, 2014 yar.

2-mavzu. BIRLAMCHI DAROMADLARNI TAQSIMLASH HISOBLAMALARI

1. MHTda daromad tushunchasi, mohiyati va ahamiyati.

2. MHTda qo'llanadigan daromad ko'rsatkichlari.

3. Ishlab chiqarishdan olingan daromad va uning shakllari.

4. Daromadlarni hosil qilish hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

5. Daromadlarni birlamchi taqsimlash hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

6. Mulkdan olingan daromad va uning shakllari.

Kalit so'zlar: Tovar va nomoliyaviy xizmatlar, birlamchi daromadlar, ixtiyordagi daromadlar, o'zgartirilgan ixtiyordagi daromadlar.

1. MHTda daromad tushunchasi, mohiyati va ahamiyati.

Iqtisodiyotda qatnashuvchi birliklar o'z faoliyatlarini yuritishi uchun ma'lum bir daromad manbasiga ega bo'lishlari mumkin. Mablag'siz iqtisodiy faoliyat yuritish mushkul. Har turdagi institutsion birliklar uchun daromad manbai turlicha bo'ladi. Masalan, bozor uchun tovar va nomoliyaviy xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonaning asosiy daromad manbai shu tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlardan, mulkdan olgan daromadlaridan va transfertlardan iborat bo'lishi mumkin. Bir qarashda bu daromadlarning hammasi shu korxonanikidek ko'rinadi. Aslida esa, korxonalar yaratgan daromadlarining bir qisminigina o'z ixtiyorida qoldirishi va o'zi xohlaganday ishlatishi mumkin. Ya'ni, korxonalar daromadining ko'p qismi boshqa birliklarga tegishli ekanligini yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, ish haqi ishchilarniki, soliqlar davlat boshqaruv idoralariniki, ishlab chiqarishda ishlatilgan tovar va xizmatlar sarfi esa shu tovar va xizmatlarni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchi birliklarniki. Bundan, shunday

xulosa qilish mumkinki, har qanday tushumlar ham shu birlikning daromadi bo'lavermaydi.

2. MHT da qo'llanadigan daromad ko'rsatkichlari.

MHTda daromadlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- birlamchi daromadlar;
- ixtiyordagi daromadlar;
- o'zgartirilgan ixtiyordagi daromadlar.

Birlamchi daromadlarga iqtisodiy birliklarning ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashganliklari uchun va mulkdan olgan daromadlariga aytiladi. Birlamchi daromadlar tarkibiga ish haqi, soliqlar va subsidiyalar, foyda vaaralash daromad, olingan foizlar va dividendlar kiradi.

Ixtiyordagi daromadlar tarkibiga birlamchi daromadlar va joriy transfertlar saldosi kiradi.

O'zgartirilgan ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi davlat boshqaruv idoralari, uy xo'jaliklarigaxizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar va uy xo'jaliklari sektorlarigaxos bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich, yuqorida sanalgan sektorlar "ixtiyordagi daromad" ko'rsatkichlarini natura holidayi transfert operatsiyalari hisobiga o'zgarishini ifodalaydi(7-bobga qarang).

Iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchi birliklar o'rtasidagi ayirboshlash operatsiyalarida bir birlik uchun daromad hisoblangan operatsiya ikkinchi birlik uchun sarf-xarajat hisoblanadi yoki aksincha bir birlik sarf-xarajat qilsa, ikkinchi birlik uchun daromad hisoblanadi. Demak, daromadlar bilan sarflar bir vaqtda sodir bo'ladi va ikkala birlik schyotlaridaalohida - alohidaoperatsiya sifatida qayd etiladi.

3. Ishlab chiqarishdan olingan daromad va uning shakllari

Bu schyotda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish mobaynida yaratilgan birlamchi daromadlarning ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorlari o'rtasida taqsimlanishi jarayoni ko'rsatiladi. Schyot mamlakat miqyosida va iqtisodiyot sektorlari uchun tuziladi.

Birlamchi daromad deganda - institutsion birliklarning boshqa birliklarning iqtisodiy faoliyatida bevosita va bilvosita (moliyaviy va ishlab chiqarilmagan aktivlari bilan) qatnashganliklari natijasida ega bo'ladigan daromadlarini tushunamiz.

Birliklarning iqtisodiy faoliyatida bevosita qatnashishlari quyidagi belgi va sifatlar bilan xarakterlanadi: ishlab chiqarishni tashkil qiluvchi va yurituvchi sifatida, yollanma mehnatchi sifatida, iqtisodiy faoliyat yuritish uchun huquqiy bazani yaratuvchi va infratuzilmani shakllantiruvchi sifatida.

Birliklarning iqtisodiy faoliyatida bilvosita qatnashishlari quyidagi belgi va sifatlar bilan xarakterlanadi: o'z aktivlari bilan ishlab chiqaruvchi birlikning ustav kapitalini shakllantirishda qatnashish, moliya mablag'larini kelishilgan muddatga berish, asosiy vositalarni moliyaviy lizing asosida berish, birlikning aksiyalariga va

qimmatli qog'ozlariga ega bo'lish, ishlab chiqarilmagan aktivlarni berish va sug'urta polislariga ega bo'lish.

Birlamchi daromadlar tarkibiga mehnat haqi, sof soliqlar, foyda, aralash daromad va mulk uchun daromad kiradi.

Quyida birlamchi daromadlarni xarakterlovchi ko'rsatkichlarning ma'nosini yoritishga harakat qilamiz.

Mehnat haqi uy xo'jaligi sektorining birlamchi daromadi hisoblanadi. Mehnat haqi ko'rsatkichi bu schyotda mamlakatdagi barcha rezident birliklarining mamlakat iqtisodiy hududida va tashqarisida ishlab chiqarishda ko'rsatgan faoliyatlari natijasida olgan mehnat haqlarining (ish haqi, mukofotlar, qo'shimchalar soliqlar, majburiy sug'urta badallari va fondlarga to'lovlar bilan) yig'indisidan iborat. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu ko'rsatkich daromadlarning shakllanishi schyotidagi mehnat haqi ko'rsatkichidan farq qiladi. Chunki, daromadlarning shakllanishi schyotida mehnat haqi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishda qatnashgan rezident va norezident birliklarning mehnat haqi yig'indisidan iborat edi.

Sof foyda nomoliya, moliya, davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning birlamchi daromadi hisoblanadi. MHT metodologiyasiga asosan birlamchi daromad sof holda hisoblanishi tavsiya etiladi. Lekin, amaliyotda asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichini hisoblash qiyin bo'lgani sababli, sof foyda ko'rsatkichi bilan AKI birga qo'shib hisoblanadi. Hosil bo'lgan ko'rsatkich *yalpi foyda* deb yuritiladi. Bu ko'rsatkich, yuqorida zikr etilgan sektorlarning bevosita ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida ega bo'lgan daromadlaridan iborat. Nazariy jihatdan qaraganda, uning qiymati daromadlarni shakllanishi schyotidagi saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi.

Aralash daromad uy xo'jaliklariga tegishli nokorporativ korxonalarining birlamchi daromadi hisoblanadi. Ko'rsatkichning "aralash daromad" deb atalishiga asosiy sabab, bu ko'rsatkich tarkibida mehnat haqi va yalpi foyda qo'shib ketgan bo'ladi yoki ularni alohida hisoblash amaliy jihatdan qiyin bo'ladi. Masalan, uy xo'jaligiga qarashli ustaxonada yollangan ishchilar bilan birgalikda uy xo'jaligi a'zolari faoliyat ko'rsatadilar. Yollangan ishchilar ish haqi oladilar, uy xo'jaligi a'zolari esa odatda ish haqi olmaydi. Natijada, bunday korxonalarda foyda ko'rsatkichi tarkibida uy xo'jaligi a'zolari tomonidan olinmagan ish haqi yotga bo'ladi va uni ajratishning zarurati bo'lmaydi. Shu sababli, bunday korxonalarining foyda ko'rsatkichi aralash daromad deb yuritiladi.

Aralash daromadni MHT metodologiyasiga ko'ra sof usulda hisoblash tavsiya etiladi. Lekin, amaliyotda uy xo'jaliklari uchun asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichini hisoblash qiyin bo'lgani sababli, aralash daromad tarkibida AKI yotgan bo'ladi. Shu sababli, bu ko'rsatkichni *yalpi aralash daromad deb atash metodologik jihatdan to'g'ri bo'ladi*. Bu ko'rsatkich, uy xo'jaligi sektorlarining bevosita ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida ega bo'lgan daromadlaridan iborat. Nazariy jihatdan qaraganda, uning qiymati uy xo'jaligi sektorining daromadlarni shakllanishi schyotidagi saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi.

4. Daromadlarni hosil qilish hisoblamasi va uning ko‘rsatkichlari.

Bu schyot mamlakat miqyosida, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari kesimida tuziladi. Schyotni tuzishdan ko‘zlangan maqsad, mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot hamda iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning tarkibini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, schyotdagi ko‘rsatkichlar ishlab chiqarishda band bo‘lgan barcha institutsion birliklarning birlamchi daromadlari tarkibini ifodalaydi.

Schyotni mamlakat miqyosida tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
2. Mehnat haqi	1. Yalpi ichki mahsulot (oxirgi bozor baholarida) (1.1+1.2)
3. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar : - bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar; - bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar (minus ishora bilan)	1.1. Yalpi qo‘shilgan qiymat (asosiy bozor baholarida)
4. Asosiy kapitalning iste’moli	1.2. Mahsulot uchun sof soliqlar -mahsulot uchun ssoliqlar -mahsulot uchun subsidiyalar (minus ishora bilan)
5. Sof foyda va aralash daromad, hammasi Shu jumladan: 5.1. Shartli foyda	

Schyotning resurs qismidagi YAQQ ko‘rsatkichi ishlab chiqarish schyotidan o‘tadi. YAQQ ko‘rsatkichi mamlakatdagi barcha rezident institutsion birliklarning asosiy baholarda hisoblangan qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlarining yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Schyotning resurs qismida keltirilgan mahsulot uchun soliq ko‘rsatkichi institutsion birliklarning davlat sektoriga mahsulot (xizmat)ni iste’molchiga yetkazilayotganda mahsulot (xizmat) birligiga nisbatan to‘lanadigan soliqlardan iborat. Bu soliq tarkibiga qo‘shilgan qiymat, aksiz, import, eksport soliqlari kiradi. Odatda bu soliqni iste’molchi to‘laydi.

Mahsulot uchun subsidiyalar davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarga mahsulot (xizmat) ishlab chiqarganliklari va eksport va import qilganliklari uchun mahsulot (xizmat) birligiga nisbatan beriladigan subsidiyalardan iborat.

Mehnat haqi ko‘rsatkichi buxgalteriya hisobida ishlatiladigan “mehnat haqi” ko‘rsatkichidan birmuncha farq qiladi. MHT da mehnat haqi tarkibi ikki qismdan iborat: 1) ishchi-xizmatchilarga yoziladigan ish haqi, ularga ishlab chiqarishda qatnashganliklari uchun beriladigan mukofotlar va qo‘shimchalar daromad solig‘i bilan birga; 2) ish haqidani (majburiy) sotsial sug‘urta fondlariga ajratma (sosstrax). Bu

shchyotdagi *mehnat haqi* tarkibiga ishlab chiqarishda qatnashgan barcha rezident va norezident birliklarga ish beruvchi birlik tomonidan mehnat haqi sifatida qilgan xarajatlari kiradi.

Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar va ikkinchi qismda bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar qayd etiladi. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar bevosita ishlab chiqarish uchun to'langan soliqlardan olingan subsidiyalarni ayirish orqali topiladi. Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar ishlab chiqarish faktorlari: yer, ishlab chiqarish maydonlari, transport vositalari, ishchi kuchi va shu kabi ishlab chiqarish faktorlariga nisbatan qo'llaniladi. Odatda bu ko'rsatkich sof holda qayd qilinadi.

Shuni eslatib o'tish lozimki, mamlakat miqyosida daromadlarni shakllanishi shchyotidagi bevosita ishlab chiqarish va mahsulot uchun subsidiyalar minus ishora bilan qayd etiladi. Bu degani, soliqlar sof holda qayd etiladi. Buning sababi, mamlakat miqyosida subsidiyalar yangitdan yaratilgan qiymat hisoblanmaydi va o'z navbatida yalpi mahsulot va YAIM tarkibiga kirmaydi.

Keyingi ko'rsatkich asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkich ishlab chiqarishda band bo'lgan (ishlatilgan) asosiy fondlarning (ishlab chiqarishda 1 va undan ortiq yil muddatda ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarining) ishlab chiqarish mobaynida yo'qotgan qiymatini tiklash uchun kerak bo'ladigan qiymatdan iborat. Bu ko'rsatkich MHTda asosiy vositalarni sotib olingan vaqtdagi boshlang'ich qiymatida emas, ishlatilgan hisobot davridagi bozor baholaridagi qiymatida eskirganligini tiklash uchun ketadigan xarajatlar miqdorida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich, alohida hisoblangan bo'lmasa ($AKI=0$), foyda ko'rsatkichi yalpi foyda deb, aralash daromad - yalpi aralash daromad deb yoziladi.

Sof foyda ko'rsatkichi iqtisodiyot nomoliya va moliya sektorlarining daromadlarni shakllanishi shchyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, birliklarning mahsulot uchun soliqlar to'laguncha bo'lgan foydasidan iborat. Agarda bu ko'rsatkich yalpi usulda, ya'ni AKI bilan birgalikda hisoblangan bo'lsa, yalpi foyda deb yoziladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, aslini olganda davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlariga kiruvchi birliklar o'z mahsulotlarini bozorda sotmaganliklari uchun, ular birlamchi daromad sifatida real **sof foyda** olmaydilar. Lekin, bu sektorga kiruvchi birliklar o'zlariga qarashli (yegalik qilayotgan) ishlab chiqarish binolarida faoliyat qo'rsatgan bo'lsalar **shartli ijara haqi** hisoblanib, bu sektorning yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi tarkibiga kiritilgan bo'ladi (VII-bobning 2- bandiga qarang). Bunday hollarda, bu sektorlarning daromadlarni shakllanishi shchyotida muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich **shartli foyda** ko'rsatkichi yuzaga keladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkich birlamchi daromadlar taqsimoti shchyotining resurs qismiga o'tadi.

Sof aralash daromad uy xo'jaligi sektoriga qarashli nokorporativ korxonalarining daromadlarni hosil bo'lishi shchyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Agarda, asosiy kapitalning iste'moli alohida hisoblanmagan, ya'ni aralash daromad tarkibida yotgan bo'lsa, u yalpi aralash daromad deb yoziladi.

Bundan tashqari, sof aralash tarkibida o'z uylarida turgan uy xo'jaliklarining shartli foyda ko'rsatkichi ham yotgan bo'ladi. Agarda bu ko'rsatkichni alohida ko'rsatish imkoni bor bo'lgan hollarda, uni alohida ko'rsatish tavsiya etiladi.

5. Daromadlarni birlamchi taqsimlash hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

Uy xo'jaligi sektoriga mamlakatning rezident birliklari bo'lgan uy xo'jaliklari kiradi. Uy xo'jaligi - o'zlari tasarrufidagi daromadlarni birgalikda tasarruf etuvchi alohida oila, oilalar guruhi yoki yakka shaxs bo'lishi mumkin. Ular iste'molchi, tovar va xizmatni yaratuvchi, investor hamda ishchi kuchini beruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Uy xo'jaliklarining o'z uylaridagi moddiy mahsulot ishlab chiqarish va kapital qurilish faoliyati MHT ishlab chiqarish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqarish faoliyati deb tan olingan. Ular milliy daromad yaratishda boshqa sektorlar qatori teng qatnashadilar. Bu sektorga kiruvchi birliklar o'z mahsulotlarini bozorda sotadilar yoki o'zlarining yakuniy iste'moli uchun foydalanadilar.

Uy xo'jaliklari o'z faoliyatlari natijasida mehnat haqi, aralash daromad va mulk uchun daromad oladilar. Bundan tashqari, o'z uylarida istiqomat qiluvchi uy xo'jaliklari *shartli foyda* oladilar.

Yuqoridagi mavzularda aytib o'tilganidek, shartli foyda - o'z uylarida yashayotgan uy xo'jaliklarining *shartli ijara haqidir*. (Bu sektorning ishlab chiqarish schyotidaijara haqi yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi tarkibiga kiritilgan bo'ladi (VII-bobning 2-bandiga qarang)). Uy xo'jaligining shartli ijara haqi u yashayotgan uyni ijaraga olgan (bergan)da to'lanishi mumkin bo'lgan qiymat miqdorida hisoblanadi. Bunday hollarda, bu sektorning daromadlarni shakllanishi schyotida muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich - aralash daromad bilan birgalikda *shartli foyda* ko'rsatkichi yuzaga keladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkichlar (aralash daromad va shartli foyda) birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining resurs qismiga o'tadi.

Uy xo'jaligi sektorining mulk uchun daromad ko'rsatkichi ularning fond bozoridagi daromadlaridan, bank muassalarida saqlanayotgan jamg'armalariga beriladigan foiz to'lovlaridan, sug'urta polisi egalari oladigan sug'urta mukofotlaridan va to'g'ri investor sifatida oladigan foydalaridan iborat.

Shu bilan birga, uy xo'jaliklari boshqalar mulkidan foydalangan bo'lsalar ularga mulk uchun daromad to'laydilar. Olgan va bergan birlamchi daromadlari o'rtasidagi farq, sektorning birlamchi daromadlar saldosi hisoblanadi.

Bu holat schyot ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlar sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
	1.Shartli foyda
4.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlariga va tashqi dunyoga to'langani)	2.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlaridan va tashqi dunyodan olingani)

4.1. Foizlar	2.1. Foizlar
4.2. Dividendlar	2.2. Dividendlar
4.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi	2.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi
4.4.Renta	2.4.Renta
4.5.Sug'urta polisidan olingan daromad	2.5.Sug'urta polisidan olingan daromad
5.Birlamchi daromadlar saldosi (1+2+3+4-5)	
Ja'mi (4+5)	Ja'mi (1+2+3)
Statistik xatolik	Statistik xatolik

6. Mulkdan olingan daromad va uning shakllari.

Rezident institutsion birliklar o'zlariga qarashli bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarini norezident birliklarga berishlari evaziga tashqi dunyodan daromad oladilar yoki aksincha norezident institutsion birliklar o'zlariga qarashli bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarini rezident birliklarga berishlari evaziga tashqi dunyodan daromad oladilar. MHTda bu daromad – mulk uchun daromad deb yuritiladi.

Mulk uchun daromadlar tarkibiga foiz to'lovlari, dividendlar, sug'urta polisi egalarining mulk uchun daromadlari va renta.

Foiz to'lovlari - bir institutsion birlik ikkinchi institutsion birlikka o'z mablag'larini vaqtinchalik qarzga berganda yuzaga keladi. Odatda bu qarzlarni tijorat kreditlari, qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar, moliyaviy lizing operatsiyalari ko'rinishida bo'ladi.

Tijorat kreditlari tarkibiga tovar va xizmatlarni ayirboshlash vaqtida mahsulotni yetkazuvchi tomonidan mahsulotni oluvchiga bevosita berilgan kreditlar, oluvchi tomonidan mahsulot uchun avvaldan avans (bo'nak)lar to'lash natijasida tomonlar o'rtasida paydo bo'ladigan talablar va majburiyatlar kiradi.

Qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar tarkibiga kreditorning shartnoma asosida qarzdor (qarz oluvchi)ga shartnomada ko'rsatilgan shart va muddatga bergan pul mablag'lari, kreditor tomonidan qarzdorning savdo bitimlarini (ishlarini) moliyalashtirishi hamda xalqaro moliya tashkilotlari va valyuta fondi tomonidan berilgan kreditlar kiradi. Kreditlar bevosita moliya mablag'larini berish (kredit liniyalari orqali) va moliyaviy lizing shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy lizing shartnomalariga ko'ra oluvchi beruvchiga olinayotgan aktivning qiymatini shartnomada ko'rsatilgan davrlarda bo'lib-bo'lib to'laydi. Bu operatsiyani mohiyatiga ko'ra, aktivni beruvchi tomonidan oluvchining xarajatlarini moliyalashtirganligiga qiyoslash mumkin. Bunday operatsiyalar odatda ishlab chiqarish vositalarini olish (berish)da yuzaga keladi. Masalan, samolyotlar, traktorlar, avtobuslar va shu kabi tovarlar ko'p hollarda moliyaviy lizing shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Misol uchun, O'zbekiston («O'zbekiston havo йўллари» kompaniyasi) chet eldan Boing rusumidagi samolyotlarni, Keys traktorlarini moliyaviy

lizing shartnomalari asosida sotib olgan. Kredit sifatida olingan qarzlarning uchun to'qaruz uzulguncha kredit va moliyaviy lizing shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda va miqdorda foiz va qarzni uzish to'lovlari to'lab turiladi.

Yuqorida keltirilgan foiz to'lovlari yuzaga keladigan holatlardan tashqari, qimmatli qog'ozlarni (aksiyalardan tashqari) qaytib sotib olish (REPO) shartnomalari ham qarzni berish (olish) operatsiyalari sanaladi. Bu operatsiyalarda qimmatli qog'ozlarni sotish va qaytib sotib olish narxlarida o'rtasida farq bo'ladi. Bu farq asosida yuzaga kelgan qiymat qimmatli qog'ozning egasi uchun foiz to'lovi va qimmatli qog'ozni oluvchi uchun olingan foizlar sifatida tasniflanadi.

Dividendlar deganda, aksioner institutsion birliklarning o'z mablag'larini korporatsiyalar ixtiyoriga berib qo'yish natijasida ushbu korporatsiyalardan olgan daromadlariga aytiladi. Dividendlar mablag'larni berib qo'yish turlariga qarab har xil bo'ladi. Masalan, aksioner birlik o'z mablag'lariga boshqa korxonaning 10%dan kam aksiyasini sotib olgan bo'lsa, u portfel investor hisoblanadi. Agarda korxonaga chorak, yil yakunlariga ko'ra har bir aksiyaga daromad to'lasa, aksiyadorlar o'z aksiyalari uchun ma'lum daromadga ega bo'lishlari mumkin. Bu olingan daromad portfel investitsiyalardan olingan dividendlar deb ataladi. Agarda aksiyador to'g'ri investor (korxonaning 10%dan ortiq aksiyasiga ega) bo'lsa olingan daromadlari to'g'ri investitsiyalardan olingan dividendlar deb ataladi.

Sug'urta polisi egalarining mulk uchun daromadlari. Sug'urta kompaniyalari fuqarolarning hayotini sug'urta qiladilar. Natijada yig'ilgan mablag'lar investitsiya sifatida ishlatilib evaziga ma'lum bir daromad keltiradilar. Sug'urta kompaniyalarining bu daromadlari (aslida sug'urta qilingan fuqarolarning mablag'lari evaziga kelgani uchun va MHT qoidalariga ko'ra) uy xo'jaligi sektorining mulkdan olgan daromadi sifatida talqin qilinadi. Chunki, bu mablag'lar provardida sug'urta polisiga ega bo'lgan fuqarolarga sug'urta mukofoti sifatida beriladi.

Renta – mulk uchun daromadning bir turi bo'lib, bu daromad bir institutsion birlikning boshqa birlikka o'ziga tegishli bo'lgan ishlab chiqarilmagan aktivlari (yer va konlar)ni foydalanishga berishi evaziga oladigan daromadlaridan iborat. Renta ikki xil bo'ladi: yer uchun renta va kon uchun renta.

Yer uchun renta deb, yer egasining yerni arendatorga ma'lum bir muddatga foydalanishga berishi evaziga oladigan daromadiga aytiladi. Renta yer egasiga arenda muddati tugaguncha daromad keltiradi. Uning miqdori (bir varakayiga yig'ib to'lansa ham) hisobot davrida to'lanishi lozim bo'lgan summadan iborat bo'lib, har bir hisobot davri uchun alohida qayd etib boriladi. Renta naqd pul yoki natura holida to'lanishi mumkin.

Kon uchun renta deb, kon egasining boshqa institutsion birliklarga kondan ma'lum muddatga foydalanishiga litsenziya (ruxsatnoma) berishi evaziga oladigan daromadiga aytiladi. Renta to'lovlari bir marotabalik yoki kondan qazib olingan mahsulot miqdoriga bog'liq ravishda to'lanadigan to'lovlardan iborat. Renta bilan foydali qazilmalar (neft, gaz, oltin, rangli metallar va boshqalar) ishlab chiqargani uchun muntazam ravishda davlat sektoriga to'lanadigan to'lovlarni farqiga borish kerak. Chunki, oxirgi aytilgan to'lovlar mahsulot uchun soliq sifatida talqin qilinadi.

Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun XXB hisobot tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'llab bo'lmaydi?
2. MHT va XXB tizimlarida ishlab chiqarish tushunchasi qaysi jihatlar bilan farq qiladi?
3. Bozor munosabati deganda nimani tushunasiz?
4. Bozor munosabatlarining shakllanganligining asosiy belgilari nimalardan iborat?
5. MHTda iqtisodiy ishlab chiqarish qanday jarayon? Unga misollar keltiring.
6. Nima uchun xizmatlar ko'rsatish iqtisodiy ishlab chiqarish sanaladi?
7. Tovarlar va xizmatlar o'rtasida qanday tafovutlar bor?
8. Ishlab chiqarish chegarasi deganda nimani tushunasiz?
9. Qaysi faoliyat turlari ishlab chiqarish sifatida qaralmaydi? Misollar keltiring.
10. Uy xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadimi? Misollar keltiring.
11. Bozor va nobozor ishlab chiqarish o'rtasida qanday farqlar bor? Misollar keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

9. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va Statistika. Uchebnik. /Pod red. I.I. Yelisyevoy. – M.: Prospekt, 2010. – 448 str.
10. 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
11. Xarchenko N.M. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 s.
12. N.M.Soatov, X.Nabiev, D.Nabiev, G.N.Tillaxo'jaeva. Statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2009. – 568 bet.
13. Nabiyev X., Nabiyev D.X. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T.: Aloqachi, 2009. 512 bet.
14. Natsionalnoye schetovodstvo. /Pod red. B.N.Bashkatova. – M.: FiS, 2009.
15. Yu.N.Ivanov i dr. Sistema natsionalnykh schetov – instrument makroekonomicheskogo analiza. Uchebnoye posobiye/ Pod redaksiyey Yu.N.Ivanova. - M.: Finstatinform, 2006.
16. European Central Bank. Financial Production, Flows and Stocks in the System of National Accounts. // USA, 2014 yar.

3-mavzu. Tashqi dunyo sektori hisoblamalari

1. Tovar va xizmatlar bilan tashqi operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

2. Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

3. Sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

4. Moliya hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

Kalit so'zlar: Tovar va xizmatlar, tashqi operatsiyalar hisoblamasi, . tashqi birlamchi daromadlar, joriy transfertlar hisoblamasi, sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi, moliya hisoblamasi.

1. Tovar va xizmatlar bilan tashqi operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotida rezident va norezident birliklar o'rtasidagi tovar va xizmatlar ayirboshlash operatsiyalari qayd etiladi. Schyotni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad, mamlakat iqtisodiyotining chet el mamlakatlari bilan bo'lgan tovarlar va xizmatlar ayirboshlash natijasida mamlakatga kirib kelgan (yoki chiqib ketgan) resurslar ko'lamini bilishdan iborat.

Schyotning umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
A. Tovarlar va xizmatlar eksporti	V. Tovar va xizmatlar importi
shu jumladan:	shu jumladan:
- tovarlar	- tovarlar
- xizmatlar	- xizmatlar
S. Tovarlar va xizmatlar saldos (S=V-A)	

Schyotda operatsiyalar norezident nuqtai nazaridan qayd etiladi. Bunga ko'ra, cchyotning *resurslar* tarafida norezidentlarning rezidentlar (O'zbekiston)dan olgan iqtisodiy qiymatlari, ya'ni O'zbekistonning «tashqi dunyo»ga import qilgan tovarlar va xizmatlari miqdori yoziladi. Cchyotning *ishlatilishi* tarafida norezidentlarning rezidentlarga bergan iqtisodiy qiymatlari, ya'ni O'zbekistonning «tashqi dunyo»ga qilgan eksporti miqdori yoziladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda O'zbekistonning tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

O'zbekistonning tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
A. O'zbekistonning tashqi dunyoga eksporti, ja'mi	V. O'zbekistonning tashqi dunyodan importi, ja'mi
shu jumladan:	shu jumladan:
- tovarlar eksporti	- tovarlar importi
- xizmatlar eksporti	- xizmatlar importi
S. Tovarlar va xizmatlar saldos (S=V-A)	

Tovarlar eksporti va importi FOB (chegara) baholarida hisoblanadi (1 sharxga qarang). Bunday baholash usulini amalda qo'llash savdo balansini va xizmatlar balansini to'g'ri baholashga imkon beradi. Bu ko'rsatkichlar orqali, biz mamlakatdan chiqib ketayotgan (yoki kirib kelayotgan) tovarlarning va xizmatlarning haqiqiy miqdorini aniqlay olamiz.

Schyotning *tovarlar va xizmatlar saldosi* ko'rsatkichi schyotning resurs tomonida keltirilgan ko'rsatkichlar yig'indisidan ishlatilishi tomonidagisini ayirish orqali topiladi. Bu ko'rsatkich mazmuniga ko'ra, tovarlar va xizmatlar ayirboshlash operatsiyalari bo'yicha O'zbekiston rezident institutsion birliklarining norezidentlardan olgan yoki bergan *sof iqtisodiy qiymatlari* hajmini ifodalaydi. Tovarlar va xizmatlar saldosinging musbat ishorali bo'lishi tashqi dunyoning O'zbekistondan (tovarlar va xizmatlar ko'rinishida) olgan sof resurslari miqdorini bildiradi, aks holda esa, tashqi dunyoning O'zbekistonga bergan resurslarning sof miqdorini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, saldonging musbat bo'lishi tashqi dunyo uchun aktiv (ijobiy) saldo hisoblanadi, rezident mamlakat (O'zbekiston) uchun esa passiv (salbiy) saldo hisoblanadi. Agarda saldo manfiy bo'lsa teskarisi bo'ladi.

Schyotni tuzishda har bir mamlakat axborotga bo'lgan o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda eksport va import operatsiyalarini mamlakatda qabul qilingan tovarlar va xizmatlar tasnifi asosida qayd etadi. Schyot ko'rsatkichlari milliy valyuta birligi «so'm»da qayd etiladi.

O'zbekistonda amalda bo'lgan TIF statistikasi tizimi axborot bazasi «tashqi дунё» tovarlar va xizmatlar schyotini amalda bo'lgan *TIF tovarlar ro'yxati* (TIFTR) va *xizmatlar ro'yxati* (TIFXR) bo'yicha tuzish imkonini yaratadi. Statistika amaliyotida bu tasniflarga asosan qayd etiladigan tovarlar va xizmatlar soni juda ko'p bo'lganligi uchun, tovar va xizmatlarni guruhlangan holda qayd etish tavsiya etiladi. Bu guruhlashda tovar yoki xizmatning turi eksport yoki import miqdoridagi salmog'iga qarab, katta ulushga ega bo'lgan tovar yoki xizmatlar (yoki ularning guruhlari) turlari tanlab olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonning *Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar* schyotini tuzishda 2-sharhda keltirilgan tovarlar va xizmatlar tasnifidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu tasnif O'zbekistonning oxirgi besh yildagi tovarlar eksporti va importi hajmlari tarkibini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan.

2. Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

Bu schyotda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish natijasida yaratilgan daromadlarning tashqi dunyo va ichki iqtisodiyot sektorlari o'rtasida birlamchi daromad sifatida taqsimlanishi jarayoni ko'rsatiladi. *Birlamchi daromad deganda rezident va norezident institutsion birliklarning ishlab chiqarishda qatnashganliklari va ishlab chiqarishda o'z aktivlarini ishlatganliklari uchun olishlari lozim bo'lgan daromadlar tushuniladi.* Birlamchi daromadlar bilan bog'liq ta'rif va tushunchalar 3-sharhda keltirilgan.

Mamlakatda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida rezident institutsion birliklar bilan bir qatorda norezident institutsion birliklar qatnashishi mumkin. Shu sababli, ichki iqtisodiyot sektorlari - rezidentlar bilan bir qatorda tashqi dunyo sektori – norezidentlar ham tegishli ravishda birlamchi daromadlarga ega bo‘ladilar.

Tashqi dunyo sektori va mamlakat ichki iqtisodiyot sektorlari o‘rtasida birlamchi daromad sifatida mehnat haqi, bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar va subsidiyalar hamda mulk uchun daromadlar ayirboshlanishi mumkin. Bu ayirboshlashuv operatsiyalari natijalari tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyotida qayd etiladi.

Schyotning umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

O‘zbekistonning tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
1. O‘zbekistonning norezidentlardan olgan mulk uchun daromadlari miqdori shu jumladan: - foizlar; - dividendlar; - renta	4. O‘zbekistonning norezidentlarga to‘lagan mulk uchun daromadlari miqdori shu jumladan: - foizlar; - dividendlar; - renta
2. O‘zbekistonning norezidentlardan olgan mehnat haqlari miqdori shu jumladan: - ish haqi; - sotsial sug‘urta	5. O‘zbekistonning norezidentlarga to‘lagan mehnat haqlari miqdori shu jumladan: - ish haqi; - sotsial sug‘urta
3. O‘zbekistonning norezidentlardan olgan bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlari miqdori shu jumladan: - bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar; - bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar(-)	6. O‘zbekistonning norezidentlarga to‘lagan bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlari miqdori shu jumladan: - bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar; - bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar(-)
A. O‘zbekistonning norezidentlardan olgan jami birlamchi daromadlari miqdori =1+2+3	V. O‘zbekistonning norezidentlarga to‘lagan jami birlamchi daromadlari miqdori=4+5+6
<i>Birlamchi daromadlar saldosi = V-A</i>	

Schyot norezident nuqtai nazaridan tuzilgani sababli, schyotning ishlatilishi tarafida O‘zbekiston rezident institutsion birlik (ichki iqtisodiyot sektor)larining norezidentlar (tashqi dunyo)dan birlamchi daromad sifatida olgan daromadlari qiymati

qayd etiladi. Boshqacha qilib aytganda, norezident birliklarning O‘zbekistonning rezident birliklariga birlamchi daromad sifatida bergan to‘lovlari tushuniladi. Resurs tarafida esa, aksincha, ya’ni O‘zbekiston uchun norezident bo‘lgan institutsion birliklar (tashqi dunyo sektori)ga O‘zbekiston rezident institutsion birlik (ichki iqtisodiyot sektor)lari tomonidan birlamchi daromad sifatida bergan daromadlari qiymati yoziladi. Quyida bu daromadlar tarkibi va mazmunini yoritishga harakat qilamiz.

3. Sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi va uning ko‘rsatkichlari.

To‘lov balansi ma’lum bir davr (oy, chorak, yil)ga tuziladi. Shuning uchun, u tuzilayotgan davrda mamlakat va chet el iqtisodiyoti o‘rtasida sodir bo‘lgan *o‘zgarishlarni* ifoda etadi. Masalan, yanvar oyiga tuzilgan to‘lov balansi yanvar oyidagi, chorakka tuzilgani chorakdagi, yilga tuzilgani yillik o‘zgarishlarni ifoda etadi. Bu o‘zgarishlar kuzatilgan davrda mamlakatning majburiyatlari va aktivlarining qay miqdorda oshgan yoki kamayganligini bildiradi. Yillar davomida bu o‘zgarishlarning yig‘ilmasi mamlakat iqtisodiyotining chet elga bog‘liqlik darajasini belgilaydi. Mamlakat va chet el o‘rtasidagi aktivlar va majburiyatlarning yig‘ilmasi xalqaro *investitsiya balansi* (XIB)da qayd etiladi. XIB odatda yilning oxiridagi holatiga tuziladi. Aktivlar va majburiyatlarning miqdori yilning oxiridagi baholarda qayd etiladi. Xalqaro investitsiyalar balansi mamlakatning aktivlari va majburiyatlarining statistik hisobotidan iborat bo‘lib, u bir qator tashqi iqtisodiy schyotlar majmuidan iborat. Uning qisqartirilgan ko‘rinishdagi tarkibi 9.4-jadvalda keltirilgan.

9.4-Jadval.

Xalqaro investitsiyalar balansi						
	Yil boshidagi holat	Operatsiyalar	Narxlar - ning o‘zgarishi	Valyuta kursi - ning o‘zgarishi	Boshqa o‘zgarishlar	Yil oxiridagi holat
A. Aktivlar						
1. Chet elga to‘g‘ri investitsiyalar						
2. <i>Portfel investitsiyalar</i>						
3. <i>Boshqa investitsiyalar</i>						
3.1 Kommersiya kreditlari						
3.2 Ssudalar						
3.3 Naqd pul va depozitlar						
3.4 Boshqa aktivlar						
4. Rezerv aktivlari						
4.1 Monetar oltin						
4.2 Maxsus qarz olish huquqi(SDR)						
4.3 XVFDagi rezerv pozitsiyasi						

4.4 Chet el valyutasi						
4.5 Boshqa talablar						
B. Majburiyatlar						
1. Iqtisodiyotga to'g'ri investitsiyalar						
2. Portfel investitsiyalar						
3. Boshqa investitsiyalar						
3.1 Kommersiya kreditlari						
3.2 Ssudalar						
3.3 Naqd pul va depozitlar						
3.4 Boshqa majburiyatlar						

XIB schyotlari ikki tomonli jadval ko'inishida yoziladi. Bir tomonda, aktivlar va majburiyatlar tarkibi keltirilgan. Ikkinchi tomonda, mos ravishda ularning yil boshiga bo'lgan holati, yil davomida ularning o'zgarishi (turlari bo'yicha) va yil oxiridagi holati yoziladi. Aktivlar va majburiyatlar tarkibi to'lov balansining moliya schyoti tarkibi bilan mos keladi. Ularning o'zgarishlari iqtisodiy operatsiyalar natijasida, baho va valyuta ayirboshlash kursining o'zgarishlari va boshqa tuzatishlar natijasida sodir bo'ladi. Masalan, to'g'ri investitsiyalarning yil davomida mamlakatga kelishi XIBning majburiyatlar qatorida *operatsiyalar* ustunida, moliya bozorida aksiyalarning narxi ko'tarilishi yoki pasayishi – *baholar o'zgarishi* ustunida qayd etiladi. Chet el valyutasidagi zaxiralarning nominal qiymati valyuta kursi o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Bu o'zgarish *valyuta kursi o'zgarishlari* ustunida qayd etiladi. O'tgan yillarda hisobga olinmagan aktivlar va majburiyatlar, ularning bir kategoriyadan ikkinchisiga o'tkazilishi (masalan, portfel investitsiyalarning yillar davomida yig'ilib to'g'ri investitsiyalarga aylanishi) va qarzdin voz kechish holatlari *boshqa tuzatishlar* ustunida yoziladi. Bular tashqari, monetar oltin miqdorida oltinni chetga sotish va zaxiraga sotib olish bilan bog'liq va mamlakatning *maxsus qarz olish huquqi (SDR) da bo'ladigan* o'zgarishlar ham boshqa tuzatishlar ustunida qayd etiladi. Aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi farq sof investitsiya holatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich aktivlar miqdori majburiyatlardan ko'p bo'lgan holda musbat bo'ladi. Sof investitsiya holati musbat bo'lishi, mamlakatning tashqi dunyoga nisbatan talabi, aks holda majburiyati ko'payganligini bildiradi. Xulosa qilib aytganda, xalqaro investitsiya balansini yil davomida mamlakatning chet el bilan bo'lgan moliyaviy operatsiyalarining, aktiv va majburiyatlarda baho o'zgarishlari va boshqa tuzatishlarning majmuidan iborat. Aktivlar va majburiyatlar yig'indisi mos ravishda mamlakatning yalpi tashqi aktivlar (YaTA) va yalpi tashqi majburiyatlar (YaTM) miqdorini bildiradi.

Shuni aytish lozimki, YATM bilan tashqi qarz tushunchalarini bir biridan farqlash kerak. Chunki, har doim ham majburiyatlar qarz bo'lavermaydi. Qarz tarkibiga portfel va to'g'ri investitsiyalar bo'yicha majburiyatlar kirmaydi.

Bundan tashqari, monetar oltin va SDR aktiv hisoblansada, norezidentlar uchun majburiyat hisoblanmaydi. Shu sababli, *sof tashqi aktivlar tarkibiga* monetar oltin va SDR kirmaydi.

Sof va yalpi tashqi aktivlardan *tashqi rezerv aktivlarni*(TRA) farqlash lozim. TRA mamlakatning rezerv aktivlari hisoblanadi. Har qanday aktiv ham TRA bo'lavermaydi. Rezerv aktivlariga davlatning pul-kredit siyosat yurituvchi tashkilotlari tasarrufida bo'lgan va ularni, kerak bo'lganda hech bir to'siqsiz ishlatish mumkin bo'lgan moliyaviy aktivlar kiradi. Bu moliyaviy aktivlar yuqori darajada xaridorgir va har qanday vaziyatda ham qattiq valyutaga tez sotilishi yoki boshqa turdagi rezerv aktivga almashilishi mumkin bo'lishi kerak. Rezerv aktivlari tarkibiga monetar oltin, SDR, XVFDagi aktivlar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va boshqalar kiradi. Bu tarkibga faqat rezerv aktivlarga qo'yilgan talabga javob beradigan aktivlarga kiradi. Masalan, chet el valyutasi guruhiga qattiq va barqaror valyutalar: AQSH dollari, nemis markasi, yevro va shu kabilar) kirishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar guruhiga yuqori likvidli chet el qimmatli qog'ozlari kiradi. Boshqa rezerv aktivlar guruhiga, yuqorida qayd etilmagan rezerv aktivlar kiradi.

4. Moliya hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.

Moliya schyotida rezident mamlakat institutsion birliklari va nerezident birliklar o'rtasida sodir bo'lgan moliya aktivlari ayirboshlash operatsiyalarining natijalari qayd etiladi. Schyotning aktivlar tarafida nerezidentlarning hisobot davrida rezident mamlakat birliklaridan olgan moliya aktivlari plus ishora bilan va aksincha, bergan moliya aktivlari minus ishora bilan qayd etiladi. Schyotning passivlar tarafida nerezidentlarning hisobot davrida (rezident mamlakat oldida) majburiyatlarining ko'payishi plus ishora bilan va mavjud majburiyatlarini uzish (majburiyatlarining kamayishi) miqdori minus ishora bilan qayd etiladi. Aktivlarning va majburiyat (passiv)larning o'zgarishi ularning turlari bo'yicha guruhlangan holda qayd etiladi.

Schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha:

Tashqi dunyo moliya schyoti

Aktivlarning o'zgarishi (aktivlar)	O'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi (passivlar)
1. Monetar oltin va SDR	2. Naqd pullar va depozitlar
2. Naqd pullar va depozitlar	3. Qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalardan tashqari)
3. Qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalardan tashqari)	4. Aksiyalar va boshqa aksiyadorlik kapitaliga egalik huquqini beradigan qog'ozlar
4. Aksiyalar va boshqa aksiyadorlik kapitaliga egalik huquqini beradigan qog'ozlar	5. Olingan kreditlar
5. Berilgan kreditlar	6. Sug'urta rezervlari
6. Sug'urta rezervlari	V.7. Kreditorlik qarzlari
A.7. Debitorlik qarzlari	8. Boshqa moliyaviy passivlar
8. Boshqa moliyaviy aktivlar	Sof ega bo'lingan majburiyatlar
A. Sof ega bo'lingan moliya aktivlari	

	S= A-B >0 bo'lsa Sof kreditlash deb ataladi, S= A-B ≤0 sof qarzar deb ataladi.
--	--

Schyotning aktivlar tarafining yig'indisi norezidentlarning hisobot davrida moliya aktivlarining sof o'zgarishini ifoda etadi. Passivlar tarafining yig'indisi esa, norezidentlarning hisobot davrida moliya majburiyatlarining sof o'zgarishini ifoda etadi.

Moliya schyotining muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichi (ya'ni aktivlar minus passivlar) tashqi dunyo kapital xarajatlar schyotining saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi. Bu ko'rsatkichning musbat ishora bilan chiqishi hisobot davrida norezidentlarning rezident mamlakat birliklariga bergan moliya aktivlarining olgan majburiyatlaridan ko'pligini bildiradi va "sof kreditlash" deb ataladi. Boshqacha qilib aytgandi, rezident mamlakat birliklari norezidentlar tomonidan moliyalashtirilganligini bildiradi. Aks holda, saldoning manfiy ishora bilan chiqishi hisobot davrida norezidentlarning rezident mamlakat birliklari oldida majburiyatlarining oshganligini bildiradi va "sof qarzar" deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, tashqi dunyoning rezident mamlakatdan sof qarz bo'lishi, rezident mamlakat birliklari tashqi dunyoni moliyalashtirganini yoki rezident mamlakatning tashqi dunyodan (ilgari olgan) qarzlari (majburiyatlari) kamayganligi bildiradi.

Moliya aktivlarining va majburiyatlarining o'zgarishi ularning turlari bo'yicha guruhlangan holda alohida-alohida qayd etiladi.

Moliya schyoti ko'rsatkichlari odatda rezident mamlakat milliy pul birligida operatsiya sodir bo'lgan vaqtdagi bozor baholarida hisoblanadi. Milliy valyutaga o'tkazishda operatsiya sodir bo'lgan vaqtdagi ayirboshlash kurslaridan foydalaniladi.

Shuni aytish joizki moliya aktivlarining hammasi ham ikkinchi tomon uchun majburiyat bo'lavermaydi. Bunday aktivlarga mamlakat rezerv aktivlaridagi monetar oltin va XVFDagi SDR misol bo'laoladi. Chunki, monetar oltin boshqa birliklarga berilganda (sotilganda)gina boshqa birliklarda majburiyat hosil qiladi. Rezident va norezident birliklar o'rtasidagi monetar oltin bilan bo'ladigan operatsiyalar mamlakatlarning markaziy banklari o'rtasida yoki markaziy bank bilan xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Bu operatsiyalar natijalari schyotning chap tomonida qayd etiladi. Oltinning boshqa rezident va norezident birliklar o'rtasidagi ayirboshlash operatsiyalari mos ravishda eksport yoki import operatsiyalari sifatida *tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotida* qayd etiladi.

SDR xalqaro rezerv aktivi hisoblanadi. Uning miqdori Xalqaro valyuta fondiga a'zo mamlakatlarning mos ravishda belgilangan kvota asosida o'z valyutalari birligida tashkil qilinadi va vaqti-vaqti bilan to'ldirib turiladi. Har bir mamlakat hisobot yilida o'z kvotasi miqdorida chet el valyutasini sotib olishi va foydalanishi mumkin. Va XVFD tomonidan belgilangan muddatda o'z kvotasini tiklab qo'yishi lozim. Hisobot davridagi o'zgarishlar moliya schyotining chap tomonida qayd etiladi.

Bu schyotni tuzishdan ko'zlangan maqsad, mamlakat rezident birliklarining norezidentlar bilan hisobot davrida sodir bo'lgan iqtisodiy operatsiyalar natijasida

rezident mamlakatning moliya aktivlari va passivlari qiymatining o'zgarishini hisobga olishdir.

Tashqi dunyo sektori schyotlarida Yalpi ichki mahsulot (YAIM), Yalpi milliy daromad (YAMD), Yalpi ixtiyordagi milliy daromad (YAIMD) va Yalpi milliy jamg'arma (YAMJ) ko'rsatkichlarini hisoblashda foydalaniladigan muhim ko'rsatkichlar bor. Ular qatorida eksport va import ko'rsatkichlari, rezident birliklarning tashqi dunyodan olgan va tashqi dunyoga to'lagan birlamchi daromadlari (ish haqi, mulkdan olingan daromadlar, soliqlar va subsidiyalar), olingan va berilgan kapital va joriy transfertlar bor. Bu ko'rsatkichlardan foydalanib, yuqorida sanalgan ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini keltiramiz.

$YAIM = \text{pirovard iste'mol (S)} + \text{yalpi jamg'arma (I)} + \text{tovar va xizmatlar eksporti (X)} - \text{tovar va xizmatlar importi (M)}$;

$$YAIM = S + I + X - M;$$

$YAMD = YAIM + \text{rezidentlarning norezidentlardan olgan va ularga to'lagan birlamchi daromadlari saldosini (BDS)}$;

$BDS = \text{rezidentlarning norezidentlardan olgan ish haqi} - \text{norezidentlarning rezidentlardan olgan ish haqi} + \text{rezidentlarning norezidentlardan mulk uchun olgan daromadlari} - \text{norezidentlarning rezidentlardan mulk uchun olgan daromadlari} + \text{mahsulot va import uchun soliqlar (norezidentlardan olingani +, ularga to'langani -)} - \text{saldosi} + \text{mahsulot va import uchun subsidiyalar (norezidentlardan olingani +, ularga to'langani -)} - \text{saldosi}$; $YAMD = YAIM + BDS$;

$YAIMD = YAMD + \text{norezidentlardan olingan (+) va ularga to'langan (-) joriy transfertlar saldosini (mahsulot va import uchun soliqlar va subsidiyalar ayirmasini qo'shmagan holda)}$;

$$YAIMD = YAMD + JS;$$

Yalpi milliy jamg'arma (YAMJ) YAIMDdan pirovard iste'mol (S)ni ayirish orqali topiladi. $YAMJ = YAIMD - S$; Yuqoridagi ifodalardan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$YAMJ = S + I + X - M + BDS + JS - S = I + X - M + BDS + JS.$$

Bu ifodadan, yalpi milliy jamg'armaning mamlakatdagi barcha investitsiyalar, sof eksport, birlamchi daromadlar va joriy transfertlar saldolari yig'indisidan iborat ekanligini bilamiz. Hosil bo'lgan ifodadan yalpi milliy jamg'arma va yalpi milliy yig'ilma ayirmasi tashqi dunyo joriy (TDJOS) operatsiyalar saldosiga teng ekanligini topamiz:

$$YAMJ - I = X - M + BDS + JS \text{ yoki } YAMJ - I = TDJOS.$$

Milliy boylukning jamg'arma va kapital transfertlar hisobiga o'zgarishi (MBO')ni yalpi milliy jamg'arma va kapital transfertlar saldosini (KS) yig'indisidan asosiy kapitalning iste'moli (AKI)ni ayrilganiga teng bo'ladi.

$$MBO' = YAMJ - AKI + KS;$$

Nazorat uchun savollar

1. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?

2. Uy xo'jaligi sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?
3. Tashqi dunyo sektoriga qanday birliklar kiradi?
4. MXT va buxgalteriya hisobi o'rtasida qanday bog'liqliklar bor?
5. Barcha institutsional birliklarning buxgalteriya ko'rsatkichlari MHT schyotlarini to'laqonli tuzish uchun yetarli mi?
6. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi doromad konsepsiyasida qanday farq bor?
7. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi mahsulot konsepsiyasida qanday farq bor?
8. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi xarajatlar tushunchasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
9. Buxgalteriya hisobi va MHTda iqtisodiy operatsiyalarni baholash usullarida qanday farqlar bor?
10. MHT metodologiyasidan korxonalarining iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalashda foydalanish mumkin mi?

Foydalanilgan adabiyotlar

17. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va Statistika. Uchebnik. /Pod red. I.I. Yelisyevoy. – M.: Prospekt, 2010. – 448 str.
18. 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
19. Xarchenko N.M. Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 s.
20. N.M.Soatov, X.Nabiev, D.Nabiev, G.N.Tillaxo'jaeva. Statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2009. – 568 bet.
21. Nabiyev X., Nabiyev D.X. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T.: Aloqachi, 2009. 512 bet.
22. Natsionalnoye schetovodstvo. /Pod red. B.N.Bashkatova. – M.: FiS, 2009.
23. Yu.N.Ivanov i dr. Sistema natsionalnykh schetov – instrument makroekonomicheskogo analiza. Uchebnoye posobiye/ Pod redaksiyey Yu.N.Ivanova. - M.: Finstatinform, 2006.
24. European Central Bank. Financial Production, Flows and Stocks in the System of National Accounts. // USA, 2014 yar.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg‘ulotlar respublikamizdagi ilg‘or korxonalar va tashkilotlarda o‘tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o‘tkaziladi. Mashg‘ulot davomida tinglovchilar kadrlarni innovatsion boshqarish, innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llanishi, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini monitoring qilish, O‘zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanishi to‘g‘risida amaliy ko‘nikmalar hosil qiladilar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: MHT hisoblamalari tarkibi va ularni tuzish prinsiplari

Dars shakli baxs-munozara. Ishning maqsadi tinglovchilarda real sektor rivojlanishning mohiyati, iqtisodiyot va uning shakllanishi hamda amal qilishi xususiyatlarini muhokama etish va ko‘nikma hosil etishdan iborat.

Ishni bajarish uchun quyidagi masalalar muhokama etiladi:

1. MHTda hisoblama tushunchasi va uni tuzish qoidalari.
2. Ikki yoqlama yozish prinsipi – MHT hisoblamalarini tuzishda uslubiy asos ekanligi.
3. MHT hisoblamalari tarkibi.

Muhokama uchun savollar

Nazorat savollari: Milliy hisobchilikning xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi roli nimadan iborat. MHT va XXB tizimlarining predmeti nimadan iborat. MHT va XXB tizimlari o‘rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat. Nima uchun XXB hisobot tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida qo‘llab bo‘lmaydi. MHT va XXB tizimlarida ishlab chiqarish tushunchasi qaysi jihatlar bilan farq qiladi. Bozor munosabati deganda nimani tushunasiz. Bozor munosabatlarining shakllanganligining asosiy belgilari nimalardan iborat. MHTda iqtisodiy ishlab chiqarish qanday jarayon. Unga misollar keltiring. Nima uchun xizmatlar ko‘rsatish iqtisodiy ishlab chiqarish sanaladi. Tovarlar va xizmatlar o‘rtasida qanday tafovutlar bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan

majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

1. O.I.Obrazsova, O.V.Kopeykina. Sistema natsionalnykh schetov. – M.: Izdatelskiy dom GU VSHE, 2008. – 459.

2. Salin V.N., Kudryashova S.I. Sistema natsionalnykh schetov. Uchebnoye posobiye.– M.: FiS, 2008. - 269 s.

3. Natsionalnoye schetovodstvo. Uchebnik. Pod red. B.I.Bashkatova. – M.: Finansi i statistika, 2007. - 606 s.

4. Osnovnyatsionalnogo schetovodstvo. Uchebnik. Pod red. Yu.N.Ivanova. –M.: INFRA-M, 2007. - 479 s.

5. G‘oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi. – T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004. – 125 bet.

6. Maxmudov B.M. Milliy hisobchilik asoslari. – T.: Akademiya, 2003. - 158 b.

7. B. Mahmudov. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: 2011.

8. G.Sh.Yaminova. Milliy hisoblar tizimi fanidan o‘quv-uslubiy majmua. - T.: TDIU, 2012.

9. Handbook on non-profit institutions in the system of national accounts. United Nations. Statistical Division. New York : United Nations, 2003.

10. European Central Bank. Financial Production, Flows and Stocks in the System of National Accounts. // USA, 2014 yar.

Internet saytlari.

1. www.economy.gov.ru

2. www.uza.uz

3. www.uzland.uz

4. www.stability.uz

5. www.wikipedia.org/

6. Corresponding author: maryann.feldman@unc.edu, University of North Carolina, Chapel Hill, NC 27514;

7. University of North Carolina, Chapel Hill (thadji01@email.unc.edu); London School of Economics (t.e.kemeny@lse.ac.uk);

8. University of North Carolina, Chapel Hill (llanahan@email.unc.edu)

9. www.wikipedia.org/

2-amaliy mashg‘ulot: Birlamchi daromadlarni taqsimlash hisoblamalari

Dars shakli baxs-munozara. Ishning maqsadi tinglovchilarda real sektor rivojlanishning mohiyati, iqtisodiyot va uning shakllanishi hamda amal qilishi xususiyatlarini muhokama etish va ko‘nikma hosil etishdan iborat.

Ishni bajarish uchun quyidagi masalalar muhokama etiladi:

1. MHTda daromad tushunchasi, mohiyati va ahamiyati.

2. MHTda qo‘llanadigan daromad ko‘rsatkichlari.

3. Ishlab chiqarishdan olingan daromad va uning shakllari.
4. Daromadlarni hosil qilish hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.
5. Daromadlarni birlamchi taqsimlash hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.
6. Mulkdan olingan daromad va uning shakllari

Muhokama uchun savollar

Nazorat savollari: MHT va XXB tizimlarida ishlab chiqarish tushunchasi qaysi jihatlar bilan farq qiladi. Bozor munosabati deganda nimani tushunasiz. Bozor munosabatlarining shakllanganligining asosiy belgilari nimalardan iborat. MHTda iqtisodiy ishlab chiqarish qanday jarayon. Nima uchun xizmatlar ko'rsatish iqtisodiy ishlab chiqarish sanaladi. Tovarlar va xizmatlar o'rtasida qanday tafovutlar bor. Ishlab chiqarish chegarasi deganda nimani tushunasiz. Qaysi faoliyat turlari ishlab chiqarish sifatida qaralmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

1. O.I.Obrazsova, O.V.Kopeykina. Sistema natsionalnyx schetov. – M.: Izdatelskiy dom GU VSHE, 2008. – 459.

2. Salin V.N., Kudryashova S.I. Sistema natsionalnyx schetov. Uchebnoye posobiye.– M.: FiS, 2008. - 269 s.

3. Natsionalnoye schetovodstvo. Uchebnik. Pod red. B.I.Bashkatova. – M.: Finansy i statistika, 2007. - 606 s.

4. Osnovny natsionalnogo schetovodstvo. Uchebnik. Pod red. Yu.N.Ivanova. –M.: INFRA-M, 2007. - 479 s.

5. G'oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 125 bet.

6. Maxmudov B.M. Milliy hisobchilik asoslari. – T.: Akademiya, 2003. - 158 b.

7. B. Mahmudov. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: 2011.

8. G.Sh.Yaminova. Milliy hisoblar tizimi fanidan o'quv-uslubiy majmua. - T.: TDIU, 2012.

9. Handbook on non-profit institutions in the system of national accounts. United Nations. Statistical Division. New York : United Nations, 2003.

10. European Central Bank. Financial Production, Flows and Stocks in the System of National Accounts. // USA, 2014 yar.

Internet saytlari.

10. www.economy.gov.ru

11. www.uza.uz

12. www.uzland.uz

13. www.stability.uz

14. www.wikipedia.org/
15. Corresponding author: maryann.feldman@unc.edu, University of North Carolina, Chapel Hill, NC 27514;
16. University of North Carolina, Chapel Hill (thadji01@email.unc.edu); London School of Economics (t.e.kemeny@lse.ac.uk);
17. University of North Carolina, Chapel Hill (llanahan@email.unc.edu)
18. www.wikipedia.org/

3-amaliy mashg'ulot: Tashqi dunyo sektori hisoblamalari

Dars shakli baxs-munozara. Ishning maqsadi tinglovchilarda real sektor rivojlanishning mohiyati, iqtisodiyot va uning shakllanishi hamda amal qilishi xususiyatlarini muhokama etish va ko'nikma hosil etishdan iborat.

Ishni bajarish uchun quyidagi masalalar muhokama etiladi:

1. **Tovar va xizmatlar bilan tashqi operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.**
2. **Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.**
3. **Sarmoya bilan operatsiyalar hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.**
4. **Moliya hisoblamasi va uning ko'rsatkichlari.**

Muhokama uchun savollar

Nazorat savollari: Tashqi dunyo sektoriga qanday birliklar kiradi. MXT va buxgalteriya hisobi o'rtasida qanday bog'liqliklar bor. Barcha institutsional birliklarning buxgalteriya ko'rsatkichlari MHT schyotlarini to'laonli tuzish uchun yetarli. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi doromad konsepsiyasida qanday farq bor. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi mahsulot konsepsiyasida qanday farq bor. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi xarajatlar tushunchasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat. Buxgalteriya hisobi va MHTda iqtisodiy operatsiyalarni baholash usullarida qanday farqlar bor. MHT metodologiyasidan korxonalarining iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalashda foydalanish mumkinmi. Qaysi schyotlar tarmoqlar miqyosida tuziladi. Qaysi schyotlar sektorlar miqyosida tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

3. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisobot yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

1. O.I.Obrazsova, O.V.Kopeykina. Sistema natsionalnyx schetov. – M.: Izdatelskiy dom GU VSHE, 2008. – 459.

2. Salin V.N., Kudryashova S.I. Sistema natsionalnyx schetov. Uchebnoye posobiye.– M.: FiS, 2008. - 269 s.

3. Natsionalnoye schetovodstvo. Uchebnik. Pod red. B.I.Bashkatova. – M.: Finansy i statistika, 2007. - 606 s.
4. Основы национального счетоводства. Uchebnik. Pod red. Yu.N.Ivanova. –M.: INFRA-M, 2007. - 479 s.
5. G‘oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi. – T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004. – 125 bet.
6. Maxmudov B.M. Milliy hisobchilik asoslari. – T.: Akademiya, 2003. - 158 b.
7. B. Mahmudov. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: 2011.
8. G.Sh.Yaminova. Milliy hisoblar tizimi fanidan o‘quv-uslubiy majmua. - T.: TDIU, 2012.
9. Handbook on non-profit institutions in the system of national accounts. United Nations. Statistical Division. New York : United Nations, 2003.
10. European Central Bank. Financial Production, Flows and Stocks in the System of National Accounts. // USA, 2014 yar.

Internet saytlari.

19. www.economy.gov.ru
20. www.uza.uz
21. www.uzland.uz
22. www.stability.uz
23. www.wikipedia.org/
24. Corresponding author: maryann.feldman@unc.edu, University of North Carolina, Chapel Hill, NC 27514;
25. University of North Carolina, Chapel Hill (thadji01@email.unc.edu);
London School of Economics (t.e.kemeny@lse.ac.uk);
26. University of North Carolina, Chapel Hill (llanahan@email.unc.edu)
27. www.wikipedia.org/

V. KEYSLAR BANKI

1. **Berilgan keysning maqsadi:** Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini Samarqand viloyati "Qorako'l" birlashmasining 2006 yildagi "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlari asosida hisoblaymiz;

Kutilayotgan natijalar: Birlashma faoliyatini o'rgangan holda, bilimni chuqurlashtirish, asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag'larni miqdorini aniqlash, asosiy fondlar miqdorini, tarkibini va foydalanish darajasini tahlilini o'rganib chiqish va berilgan muammolarni yechish. Keys muqaffaqiyatli yechish uchun talabalar **quyidagi natijalarga** erishishlari lozim: qishloq xo'jaligida, turli mulk shakllaridagi xo'jaliklarda, mintaqalarda asosiy fondlar miqdorini, ularning tarkibi va xolatini, ularning xarakterini aniqlash, asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasini baholash, foydalanishni iqtisodiy samaradorligini taxlil etish.

2. **Mazkur keys institutsional tizimning** real faoliyat asosida ishlab chiqilgan;

3. **Keysda ishlatilgan ma'lumotlar manbai** quyidagilardan iborat: Samarqand viloyati Qorako'l birlashmasining 2015 yildagi "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlari asosida, ushbu korxonaning nizomi, Samarqand viloyati qishloq xo'jaligining statistik ma'lumotlari.

4. **Mazkur keys dala tadqiqotlari** asosida syujetli toifasiga kiradi. Holat birlashmaning tahliliy ko'rsatkichlari asosida tuzilgan. Keysning ob'ekti bo'lib: Samarqand viloyati "Qorako'l" birlashmasi hisoblanadi. Ushbu keys ma'lumotlar va dalillar asosida ishlab chiqilgan. U tuzilmaviy va katta hajmdagi keys – stadi hisoblanadi.

5. **Didaktik maqsadlarga ko'ra** keys – tahlillarni o'rgatish va baholash hisoblanadi. Shu sababdan, keys muammosining shakllanishi va tuzilishi uning masalasining yechimida algoritim va tahlil asosida ishlab chiqilgan. Gologramma sifatida ba'zi ma'lumotlar nazariy jihatdan berilgan bo'lib, qo'shimcha axborotlar muammoli holatlarni amaliy mashg'ulotlarda o'z yechimlariga ega bo'ladi.

Keysning afzalliklariga quyidagilar kiradi: O'quv darsining keys – texnologiya o'qitish bo'yicha, talabalarning o'zi tashkil etgan ish faoliyatining ta'minlovchi va uning natijaviy bahosini belgilovchi "Holatliy tahlil varaqasi" mavjud.

6. Ushbu keys – "Mehnat statistikasi", "Iqtisodiy statistika", "Sanoat statistikasi", fanlarining mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

1. «Qorako'l» birlashmasiga iqtisodiy tavsifnoma

Tashkilotning manzili:

Birlashma Samarqand viloyati, Urgut tumani, Shohi-zinda shahri, sanoat zonasida joylashgan bo'lib, birlashma 1998 yildan boshlab faoliyat yuritadi.

Tashkilotning to'liq nomlanishi:

«Qorako'l» birlashmasi

Tashkilotning tashkil etilgan yili:

Samarqand viloyati Urgut tumani Hokimining 1998 yil 10 martdagi 234-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tgan.

Tashkilotning shakli:

«Qorako'l» birlashmasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, tumani Hokimining 1997yil 22 martdagi 70-sonli qaroriga asosan ro'yxatga olingan.

Tashkilotning faoliyat turi:

«Qorako'l» birlashmasi quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanadi:

- chorvachilik, parrandachilik, go'shtini qayta ishlash va kolbasa mahsulotlarini ishlab chiqarish.
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, sotib olish, qayta ishlash, saqlash hamda bozorlarda sotish, shu jumladan, o'z savdo shaxobchalari orqali sotish;
- chorvachilik va parrandachilik faoliyati bilan shug'ullanish, chorva mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, sotib olish va sotish;
- savdo do'konlarini tashkil qilish va savdo-sotiq faoliyati bilan shug'ullanish hamda maishiy xizmat shaxobchalari ochish;
- issiqxonalar barpo etish va ularda issiqxona mahsulotlari yetishtirib, aholiga sotish hamda bog'dorchilik va uzumchilik faoliyati bilan shug'ullanish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va raqobatbardosh mahsulotlarini ko'paytirib, jahon bozoriga olib chiqish.

Xo'jalikning mexnat faoliyati go'sht va parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'lib, ushbu fermer xo'jaligi o'zida bir nechta xususiy tadbirkorlarni birlashtirib, shu jumladan, chorvachilik hamda go'shtdan kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Asosiy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar 20 turdan ortiq bo'lib, kolbasa, sosiska, sardelka, dudlangan kolbasa, tuxum, parranda go'shti, mol go'shti va bozorda bo'lmagan, yangi talabga javob beradigan mahsulotlarni tashkil qilib, sifatli, xorijiy mahsulotlar bilan raqobatlasha oladigan go'sht mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ushbu fermer xo'jaligi dastlab besh xildagi kolbasa mahsulotlari ishlab chiqargan bo'lsa, hozirda 11 xildagi kolbasa, 4 xilda sosiska va 2 xildagi vetchina, makaron mahsulotlari hamda sardelka mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Tashkilotning maqsad va vazifalari:

- ishlab chiqarishni yanada kuchaytirish va halqaro miqyosda kengaytirish;
- shahar aholisi va mahalliy aholini o'zining sifatli mahsulotlari bilan ta'minlash;
- joylarda savdo shaxobchalarini tashkil etish va qulay sharoitda aholiga keng xizmat ko'rsatish;
- tabiiy oziq-ovqat va go'sht mahsulotlarini ko'paytirish va daromad olish.

2. «QORAKO‘L” BIRLASHMASINING BOSHQARUV TIZIMI HAQIDA MA‘LUMOT


Tashkilotning boshqaruv tuzilishi:

«QORAKO‘L” birlashmasi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, davlat tomonidan boshqarilmaydi. «QORAKO‘L” birlashmasi xususiy bo‘lganligi sababli, «QORAKO‘L” birlashmasining 2000 yilda tasdiqlangan va SamarO‘and viloyati Urgut tumani Hokimining 2000 yil 10 mayidagi 305-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tgan nizomining V bandiga asosan ish yuritiladi. «QORAKO‘L” birlashmasi nizomining V-17 bandida yozilishicha, «QORAKO‘L” birlashmasiga 18 (o‘n sakkiz) yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo‘lgan, muomalaga layoqatli xo‘jalik a‘zolaridan biri rahbarlik qilishi mumkin. «QORAKO‘L” birlashmasining rahbariyatidan tashqari mahalliy ihsizlar sonini kamaytirish maqsadida «QORAKO‘L” birlashmasi yaqin atrofdagi mahallaning 100 nafardan ortiq a‘zosini xo‘jalikda mehnat qilishga jalb etgan. Olingan 100 nafardan ortiq ishchi kuchini malakasini oshirish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirilgan bo‘lib, «QORAKO‘L” birlashmasi iqtisodiyotini ko‘tarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardosh va yuqori sifatli bo‘lishini ta‘minlash vazifasi birlashma zimmasiga olingan.

Chizma №1

Tashkilotning boshqaruv shakli:

«QORAKO‘L” birlashmasining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv faoliyatining umumiy ko‘rinishi



1-rasm. «QORAKO‘L” birlashmasining tashkiliy tuzilmasining umumiy ko‘rinishi

Tashkilotning chet el bilan hamkorligi:

«QORAKO‘L” birlashmasining chet el mamlakatlari bilan aloqalarini 2000 yillardan boshlab yo‘lga qo‘ygan. Chet ellik fermer xo‘jaliklari bilan o‘z faoliyatini yurgizish va mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish uchun «QORAKO‘L” birlashmasining rahbariyati chet ellik mutaxassislarni O‘zbekistonga taklif qilib, «QORAKO‘L” birlashmasining ishchilari va xodimlarini o‘qitdi, hamda ularning malakasini oshirdi.

3. «Qorako‘l” birlashmasining asosiy fondlari haqida ma‘lumot.

3.1 Tadqiqotlar tizimida asosiy fondlarning holati va harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarini o‘rganish.

Asosiy fondlarning ayrim turlari naturada, umumiy hajm va tarkibi pul qiymatida hisobga olinadi, chunki asosiy foydalarni pul qiymatida hisoblash shu ho‘jalikda asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag‘larni miqdori, shuningdek asosiy fondlarning yetishtirilgan mahsulotlarga o‘tgan qiymatini aniqlash imkonini beradi. Statistika amaliyotida asosiy fondlarni pulga chaqib baholashning turli usullari bor:

-Asosiy fondlarni boshlang‘ich (dastlabki) to‘liq qiymati. Bunga fondning dastlabki sotish (ishlab chiqarish) bahosi, uni keltirib ko‘rish va o‘rnatish harajatlari qiradi;

-To‘liq tiklangan qiymat. Bu shu vaqtning o‘zida hozirgi baholarda fondning takror ishlab chiqilgan qiymatidir. Bu qiymat asosiy fondlarni qaytadan baholash jarayonida aniqlanadi;

-Boshlang‘ich to‘liq qiymatidan eskirgan, yeyilgan qiymatni chiqarib tashlagandan qolgan qiymat. Bu asosiy fondlarning to‘liq qiymati bilan ularning eskirgan, yeyilgan qiymati o‘rtasidagi tafovutdir;

-Tiklangan bahodan eskirgan, yeyilgan qism qiymatini chiqarib tashlagandan so‘ng qiymati. Bu asosiy fondlarning to‘liq tiklangan qiymati bilan eskirgan, yeyilgan qiymati o‘rtasidagi tafovutdir;

Bu usullarda hisoblangan har bir ko‘rsatkich mustaqil iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib xo‘jalikda asosiy fondlarni yaratish uchun sarflangan mablag‘ miqdorini aniqlash imkonini beradi. Qishloq xo‘jalik korxonalarining buxgalteriya hisobida asosiy fondlar boshlang‘ich qiymatida hisobga olinadi. Shu bilan birga asosiy fondlar turli vaqtlarda hosil qilinadi, demak ularning baholari ham turlicha buladi. Shu sababli asosiy fondlarni qiymatiga qarab taqqoslab bulmaydi va ularning dinamikasini ham o‘rganish qiyin bo‘ladi. Asosiy fondlarni taqqoslashni ta‘minlash uchun ularni inventarizatsiyasi o‘tkazilib aniq vaqtdagi qiymatiga ko‘ra qaytadan baholanadi. Asosiy fondlarni qayta baholash sobiq ittifoq davrida oxirigi marta 1972 yilda davlatimiz musttaqilligidan so‘ng 1993 va 1994 yillarda o‘tkazilgan.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashaverib asosiy fondlar eskiradi, yemiriladi shu bilan birga ular ma‘naviy jihatidan ham eskiradi. Eskirish qiymatini qoplash va yangilash maqsadida asosiy fondlarning amortizatsiya fondi tashkil etiladi. Xar yili oldindan belgilangan me‘yor bo‘yicha asosiy fondlar qiymatidan amortizatsiya ajratishlari hisoblanib, fondlarga o‘tkaziladi. Amortizatsiya ajratmalar me‘yorlar xukumat qarorlari bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksining

23 moddasiga muvofiq 1998 yil 1 yanvardan asosiy fondlarning guruhlariga qarab quyidagi amortizatsiya normalari 5%, 8%, 10 %, 15%, 20 % belgilangan.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishni tasniflash uchun ularni hisobot davrdagi (asosiy bir yillik) xarakterini tasniflovchi balanslardan keng foydalaniladi. Balans jadval shaklida tuzilib yo'llari buyicha asosiy fondlarni turlari, ustunlar bo'yicha ularni o'zgarishlari yil boshidagi holati, yil davomida kelib tushgan, yil davomida chiqarilgan, yil oxirigi holati ko'rsatiladi.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini quyidagi hisobot ma'lumotlaridan foydalanib aniqlash mumkin:

1. Xo'jalikning yillik hisoboti tarkibidagi 3-shakl bo'yicha tuzilgan «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari;

2. 11-shaklda tuzilgan davlat statistika hisoboti tarkibidagi «Asosiy vositalarning mavjudligi, harakati va tarkibi» to'g'risidagi 1-bo'lim ma'lumotlari.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari quyidagi koeffitsiyentlar orqali ifodalanadi va o'rganiladi:

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyenti;
2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsiyenti;
3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti;
4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti;
5. Asosiy fondlarning safini to'ldirish koeffitsiyenti;
6. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti;

3.2. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi «Qorako'l» birlashmasining 2015 yilgi ko'rsatkichlari tahlili.

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini Samarqand viloyati Qorako'l birlashmasining 2015 yildagi "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlari asosida hisoblaymiz. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi 2021 yil ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich- larning Nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	kirim	Chi- qim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiri- ga	Yil boshiga	Yil oxiri-ga
1.Bino,inshoot, uzatish mosla- masi	707,4	229,6	23,3	913,7	229,0	265,0	478,4	648,7
2.Mashina va jihazlar	275,0	49,8	32,3	292,5	119,8	112,0	155,2	180,5
3.Transport vositalari	74,4	51,3	2,5	123,2	27,4	29,2	47,0	94,0
4.Ishchi va mahsuldor chorva mollari	1373,7	1027,5	453,9	1947,3	-	-	1373,7	1947,3

5. Boshqa asosiy fondlar	64,6	1,4	2,8	63,4	20,2	19,3	44,4	44,1
Jami	2495,1	1359,6	514,8	3340,1	396,4	425,5	2098,7	2914,6

4. Tinglovchilarga beriladigan mulohaza uchun savollar

1. Moddiy-texnik baza deganda nimani tushunasiz?
2. Ishlab chiqarish fondlari to'g'risida tushuncha.
3. Asosiy fondlar deb nimaga aytiladi?
4. Aylanma fondlarning ta'rifi.
5. Asosiy fondlarning guruhlari va ularning ta'rifi.
6. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining ta'rifi.
7. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari.
8. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi va yaroqliligi ko'rsatkichlarini aniqlash va ta'riflash.
9. Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari.
10. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini ayting va mazmunini ta'riflang.

5. Tinglovchilar uchun uslubiy qo'llanmalar

Muammo:

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblash *Vazifalar:*

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyenti;
2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsiyenti;
3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti;
4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti;
5. Asosiy fondlarning safini to'ldirish koeffitsiyenti;
6. Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsiyentini qisoblash

Yechish algoritmi:

Ushbu jadval ma'lumotlaridan (asosiy fondlarning balansidan) *Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyentini* aniqlash uchun ularning yil oxiridagi qiymatini yil boshidagi qiymatiga bo'lish kerak, ya'ni quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyenti} = \frac{\text{Asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati}}{\text{Asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati}} \cdot 100$$

Ushbu koeffitsiyent asosiy fondlarning o'sish darajasini ifodalaydi, ya'ni ularning yil oxiridagi hajmi yil boshiga nisbatan necha foizni tashkil qilganligini bildiradi.

Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsiyenti ikki xil usul orqali aniqlanadi.

Birinchi usul. Asosiy fondlarning mutloq o'sish miqdorini asosiy fondlarning yil boshidagi boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$\text{Кушимча ушиб коэффициенти} = \frac{\text{Асосий фондларнинг мутлок ушиб} \times 100}{\text{Асосий фондларнинг йил бошидаги бошлангич киймати}}$$

Асосий фондларнинг мутлоқ о‘сish miqdorini aniqlash uchun yil oxiridagi boshlang‘ich qiymatidan yil boshidagi boshlang‘ich qiymatini chegirib tashlash kerak.

Ikkinchi usul. Асосий фондларнинг о‘sish koeffitsiyentidan 100 foizni chegirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$\text{Кушимча ушиб коэффициенти} = \text{Асосий фондларнинг ушиб коэффициенти} - 100\%$$

Qo‘shimcha о‘sish koeffitsiyenti asosiy fondlar hajmi yil (davr) oxirida yil (davr) boshiga nisbatan necha foizga oshganligini (yoki kamayganligini) ko‘rsatadi.

Асосий фондларнинг qo‘shimcha о‘sish ko‘rsatkichi milliy boylikning uning asosiy qismi hisobiga jamg‘arilishini ifodalaydi, ya’ni milliy boylikni asosiy fondlar hisobiga jamg‘arilayotgan hajmining oshayotganini ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda moddiy-texnik bazaning mustahkamlanayotganligini ifodalaydi.

Асосий фондларнинг eskirish koeffitsiyenti ham davr (yil) boshiga, ham davr (yil) oxiriga aniqlanadi. Ushbu koeffitsiyentni aniqlash uchun eskirish summasini 100 foizga ko‘paytirib asosiy fondlarining boshlang‘ich qiymatiga bo‘linadi:

$$\text{Эскириш коэффициенти} = \frac{\text{Асосий фондларнинг эскириш суммаси} \times 100}{\text{Асосий фондларнинг бошлангич киймати}}$$

Аu koeffitsiyent asosiy fondlarining texnik holatiga baho berishda qo‘llaniladi. Ushbu koeffitsiyent qancha yuqori bo‘lsa, asosiy fondlar holati shuncha yomonlashgan bo‘ladi.

Асосий фондларнинг yaroqlilik koeffitsiyenti ikki xil usul orqali aniqlanadi:

Birinchi usul. Асосий фондларнинг qoldiq qiymatini 100 foizga ko‘paytirib, asosiy fondlarining boshlang‘ich qiymatiga bo‘lish orqali aniqlanadi:

$$\text{Яроклик коэффициенти} = \frac{\text{Асосий фондларнинг колдик кийматих} \times 100}{\text{Асосий фондларнинг бошлангич киймати}}$$

Ikkinchi usul. 100 foizdan eskirishi koeffitsiyentini ayrish orqali aniqlanadi.

$$K_n = 100\% - K_s$$

Асосий фондлар safini to‘ldirish koeffitsiyentini aniqlash uchun yil davrida ishga tushirilgan, sotib olingan va boshqa yo‘llar bilan kiringa olingan fondlar qiymatlarining yig‘indisini yil oxiridagi asosiy fondlar qiymatiga bo‘lish kerak. Ushbu koeffitsiyentni fondlarining yil boshidagi qiymatiga nisbatan aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Асосий фондларнинг yangilanish koeffitsiyentini aniqlash uchun yil davomida ishga tushirilgan va sotib olingan yangi asosiy fondlarining qiymatini ularning yil oxiridagi umumiy qiymatiga bo‘lish kerak:

$$\text{Янгилашти} \quad \text{йил давомидатидаги агуширилган янги} \\ \text{коэффициенти} = \frac{\text{асосий фондлар кийматих 100}}{\text{Асосий фондларнинг йил охиридаги} \\ \text{умумий киймати}}$$

Bu koeffitsiyent jami asosiy fondlar va shu jumladan ularning aktiv qismi bo'yicha ham hisoblanadi. Bu koeffitsiyent yil oxiridagi jami asosiy fondlar hajmiga nisbatan yangi asosiy fondlar qiymatining egallagan hissasini bildiradi. Bu ko'rsatkich ma'lum darajada iqtisodiyotdagi texnika taraqqiyotini ham ifodalaydi. Bu koeffitsiyentni yil boshidagi qiymatiga nisbatan hisoblashni tavsiya qilamiz.

Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsiyentini hisoblash uchun yil davomida har xil yo'llar bilan hisobdan chiqarilgan asosiy fondlar qiymatlarining jamini asosiy fondlarning yil boshidagi jami qiymatiga bo'lish kerak:

$$\text{Hisobdan chiqarishi} \quad \text{Hisobdan chiqarilgan jami} \\ \text{коэффициенти} = \frac{\text{асосий фондлар кийматих 100}}{\text{Асосий фондларнинг йил} \\ \text{бошидаги жами киймати}}$$

Asosiy fondlarning eskirishi tufayli hisobdan chiqarish koeffitsiyentini aniqlash uchun eskirishi, yeyilishi, qariganligi natijasida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlarning qiymatini jami asosiy fondlarning yil boshidagi qiymatiga bo'lish kerak.

Holatiy tahlilning varaqasi

Tahlil bosqichining nomi	Tahlil bosqichining mazmuni	Tahlil bosqichi	Baholash mezonlari
1. Holatiy tahlil	1. Holatning aniq ko'rinishi va masalaning hal etilishi, yechilishi uchun aniq ma'lumotlar. 2. Holatning eng muhim hususiyatlari: Nima bo'lmoqda? Holatning natijalarini shakllanishi qanday?		1 – 0.5 ball 2 – 1 ball
2. Muammoning shakllanishi	Muammoda aks ettiruvchi asosiy hususiyatlar: 1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyenti; 2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsiyenti; 3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti; 4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti;		A) – 0.5 ball B) – 0.5 ball V) – 1 ball

	5. Asosiy fondlarning safini to'ldirish koeffitsiyentini; 6. Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsiyentini qisoblash.		
3. Holatning ishtirokchilarini aniqlash	«Qorako'l» birlashmasining iqtisodiy tavsifnomasi, ish faoliyati va tarkibi, boshqarish tizimi		1 ball
4. Bozor kon'yunkturasi holatning o'rganish	Asosiy fondlarning holatini aniqlash va ularning afzallik yoki talabga javob berish holatini o'rganib chiqish.		2 ball
5. Korxonalarni taqqoslash yoki ularning bozordagi o'rnini egallashi	A) Raqobatchi korxonalarining bozordagi mavqeini aniqlash; B) Taqqoslash natijalari aniqlanadi		A) 1.0 ball B) 1.5 ball
6. Korxonaning SWOT tahlili yoki mavjud bo'lgan usullarda yechish	1) Raqobatbardosh korxonalar korxonalarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash. 2) Ushbu tahlil asosida korxonaning imkoniyatlarini aniqlash.		1) 1.5 ball 2) 2 ball
7. Muqobil variantlarini bilish va eng alternativ holatini tanlash	Holatiy masalaning alternativ yechimlarni bildirish: bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni bildirish. Har bir alternativlarni baholash. Salbiy va ijobiy tomonlarini ko'rsatish. Eng zo'r alternativni tanlash.		1.5 ball
8. Yechimni ishlab chiqish	Masalaning yechimini hal qilmoq va ishlab chiqish, tovarlar assortimenti strategiyasini ishlab chiqish.		2 ball

6. O'quv - uslubiy materiallar

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning muhim omillaridan bo'lib, asosiy va aylanma fondlar bilan ta'minlanishi hisoblanadi.

Asosiy va aylanma fondlar vujudga kelishi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsuloti va boshqa tarmoqlar iqtisodining mahsulotiga bo'linadi.

Korxonalar mahsuloti hisobidan yuzaga kelgan asosiy fondlar xo'jalikda foydalanish yoshiga yotgan mevali daraxtlar, ishchi va mahsuldor mollardan tashkil topadi. Qishloq xo'jalik mahsuloti hisobidan yuzaga kelgan aylanma fondlar o'z ichiga o'simlikchilik va chorvachilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarish ehtiyoji uchun ishlatiladigan tayyor mahsulotning ayrim qismini (urug', ozuqa va b.q) oladi.

Korxonalar mahsulotiga tegishli bo'lmagan, ya'ni boshqa tarmoq iqtisodiga tegishli bo'lgan qishloq xo'jalik asosiy fondlariga imoratlar, inshootlar, transport vositalari,

mashina va jihozlar va boshqalar kiradi, aylanma fondlariga o'g'it, zaxarliximikatlar va boshqa sanoat mahsulotlari kiradi.

Takror ishlab chiqarishdagi rolga qarab moddiy-texnik baza mehnat vositalari va mehnat predmetlariga bo'linadi.

Mehnat vositalari moddiy ne'matlardan tashkil topgan bo'lib, ular yordamida ishlovchilar mehnat predmetlariga ta'sir o'tkazadi. Bularga mehnat qurollari va mehnat moddiy sharoitlarini ifodalovchi ne'matlar kiradi.

Mehnat qurollariga mashinalar va jihozlar, inventarlar, ishchi va mahsuldor mollar kiradi. Mehnat moddiy sharoitlarini ifodalovchi ne'matlarga imorat va inshootlar, aloqa vositalari va boshqalar kiradi.

Mehnat predmetlari moddiy ne'matlar bo'lib, ishlovchilarning mehnatining ta'siri ostida ulardan yangi moddiy ne'matlar yaratiladi. Bularga urug', ozuqa, yosh va boquvdagi mollar va boshqa ne'matlarni kiritish mumkin.

Korxonalarining ish faoliyatida, mehnat vositalari va mehnat predmetlari uzluksiz ravishda ishtirok etadi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etishiga qarab asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi. Boshqacha aytganda mehnat vositalari *asosiy fondlar* deb, mehnat predmetlari esa *aylanma fondlar* deb ataladi.

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ko'p yillar davrida xizmat qiluvchi, o'zlarining eskirgan qismini yaratilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat qiymatiga o'tkazib boruvchi, o'z natura shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalari asosiy fondlar deb ataladi. Bularga traktor, kombayn, transport vositalari, imoratlar, inshootlar va boshqa mehnat vositalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bir marta ishtirok etuvchi, o'z qiymatini yaratilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat qiymatiga to'liq o'tkazuvchi, o'z natura shaklini yo'qotuvchi mehnat predmetlari aylanma fondlar deb aytiladi.

Bularga urug'lik, yem-xashak, o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari, kam baholi buyumlar kabi mehnat predmetlari kiradi.

Korxonalarda asosiy fondlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlari;
2. Noishlab chiqarish asosiy fondlari.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etib, moddiy ne'mat yaratuvchi mehnat vositalari asosiy ishlab chiqarish fondlari hisoblanadi.

Korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari o'z navbatida ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Korxonada ishlab chiqarishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari;
2. Korxonada ishlab chiqarishiga oid bo'lmagan asosiy ishlab chiqarish fondlari.

Korxonada ishlab chiqarishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari o'z navbatida quyidagi uch guruhga bo'linib o'rganiladi:

1. O'simlikchilik sohasida band bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari;
2. Chorvachilik sohasida band bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari;
3. Umumxo'jalik yo'nalishiga oid bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari.

Korxonada ishlab chiqarishiga oid bo'lmagan asosiy ishlab chiqarish fondlariga qishloq xo'jalik korxonasi tarkibidagi sanoat, qurilish, savdo va ovqatlanish tarmoqlarida band bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlari kiradi.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan, ammo ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun shart-sharoit yaratib beruvchi mehnat vositalari noishlab chiqarish asosiy fondlari bo'lib hisoblanadi. Bularga qishloq xo'jalik korxonasi tarkibidagi tibbiyot, maorif, madaniy-oqartuv, sport sohalarida xizmat qiluvchi asosiy fondlar kiradi.

Har bir guruh tarkibidagi asosiy vositalar o'z xususiyatlaridan kelib chiqib, bir necha turlarga bo'linib, o'rganiladi. Shu jumladan asosiy ishlab chiqarish fondlari 11-shalkdagi davlat statistika hisobotining «Asosiy vositalarning mavjudligi, harakati va таркиби» nomli 1-bo'limda quyidagi turlarga bo'linib, hisobga olingan:

1. Binolar;
2. Inshootlar;
3. Uzatish qurilmalari;
4. Mashina va asbob-uskunalar;
5. Transport vositalari;
6. Asboblari, ishlab chiqarish va xo'jalik ashyolari;
7. Ish hayvonlari;
8. Mahsuldor mollar;
9. Ko'p yillik mevali daraxtlar;
10. Asosiy vositalarning boshqa turlari.

Asosiy va aylanma fondlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy omillari bo'lganligi uchun ham ularning holati va harakatini hamda ulardan foydalanish darajasini o'rganish va statistik tahlil qilish katta ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan asosiy fondlar statistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Korxonada turli mulk shakllaridagi xo'jaliklarda, mintaqalarda asosiy fondlarning miqdori, tarkibi, tarkibiy tuzilishi va dinamikasini o'rganish;
2. Asosiy fondlarning holati va harakatini ifodlovchi (takror ishlab chiqarish) ko'rsatkichlarini aniqlash va dinamikasini o'rganish;
3. Asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasini aniqlash va statistik tahlil qilish;
4. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari dinamikasini statistik tahlil qilish;
5. Aylanma fondlarning tarkibi, tarkibiy tuzilishi va dinamikasini o'rganish;
6. Aylanma fondlar bilan ta'minlanish darajasini va ulardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.

7. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

Ushbu jadval ma'lumotlaridan (asosiy fondlarning balansidan) foydalanib, asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz. Asosiy fondlarning mutloq o'sishi yil oxirida yil boshiga nisbatan 845 mln. so'mni tashkil qilgan: $3340,1 - 2495,1 = + 845$ mln.so'm.

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyenti:

$$K_{\text{a}\phi\text{y}} = \frac{3340,1}{2495,1} \cdot 100 = 133,9 \%$$

Demak, o'sish koeffitsiyenti 133,9% ni tashkil qilgan.

2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsiyenti. Bu ko'rsatkich ikki xil usul bilan aniqlanadi:

$$1) K_{\text{a}\phi\text{ky}} = \frac{845}{2495,1} \cdot 100 = 33,9 \%$$

$$2) \text{ёku } 133,9 - 100 = 33,9 \%$$

Demak, asosiy fondlar hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 33,9 % ga oshgan.

3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti:

$$\text{Yil boshida: } K_{\text{a}\phi\text{э}} = \frac{396,4}{2495,1} \cdot 100 = 15,9 \%$$

$$\text{Yil oxirida: } K_{\text{a}\phi\text{э}} = \frac{425,5}{3340,1} \cdot 100 = 12,7 \%$$

Birlashma bo'yicha asosiy fondlarning eskirish darajasi 3,2 foizga kamaygan, demak fondlar ahvoli yaxshilangan, yaroqlilik darajasi oshgan.

4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti:

$$\text{Yil boshida: } K_{\text{a}\phi\text{я}} = \frac{2098,7}{2495,1} \cdot 100 = 84,1 \%$$

$$\text{ёku } 100 - 15,9 = 84,1 \%$$

$$\text{Yil oxirida: } K_{\text{a}\phi\text{я}} = \frac{2914,6}{3340,1} \cdot 100 = 87,3 \%$$

$$\text{ёku } 100 - 12,7 = 87,3 \%$$

Asosiy fondlarning yaroqlilik darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 3,2 foizga oshgan.

5. Asosiy fondlar safini to'ldirish koeffitsiyenti:

$$K_{\text{a}\phi\text{m}} = \frac{1359,6}{3340,1} \cdot 100 = 40,7 \%$$

Demak, asosiy fondlar safi har xil yo'llar bilan 40,7 foizga kengaytirilgan.

6. Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsiyenti:

$$J_{\text{a}\phi\text{xu}} = \frac{514,8}{2495,1} \cdot 100 = 20,6 \%$$

Yil davrida har xil yo'llar bilan xo'jalik hisobidan chiqib ketgan fondlar hajmi 20,6 foizni tashkil qiladi.

VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1) Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ish – mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. Shu boisdan, konspektidan farqli o'laroq, mustaqil ish yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik, yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvi tushuniladi.

Mustaqil ish - har xil nuqtai nazarlarni o'zaro solishtirish va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o'zida mujassam etadigan g'oyalarni qisqacha yozma ko'rinishidagi taqdimotidir.

Mustaqil ishning turlari va tizimi:

1. Ifodalanish to'liqligicha ko'ra:

- a) informativ (referatlar – konspektlar);
- b) indikativ (referatlar –rezyume (qisqacha mazmun)

2. Mustaqil ish tarkibi:

A) bibliografik qayd etilishi:

- F.I.Sh.ning nomi;
- chop etilgan manzili;
- nashriyot, yil;
- sahifalar soni.

B) Mustaqil ish matni:

- mavzu, muammo, mustaqil ish qilinadigan ish predmeti, maqsadi va mazmuni;
- tadqiqot usullari;
- aniq natijalari;
- muallif xulosasi;
- ish natijalarini qo'lannish sohasi.

O'quv fani bo'yicha mustaqil ish tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- O'quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga ushbu olingan nazariy bilimlarni ijodiy ko'nikmasini hosil qilish;

- Tanlangan kasbiy sohada xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari va muammolarini o'zlashtirish;

- Tanlangan mavzu bo'yicha har xil adabiy manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilar) o'rganish qobiliyatini takomillashtirish va ular natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil, hamda bilimdon holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish;

- Yozma ko'rinishdagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

“Iqtisodiy statistika va milliy hisoblar tizimi” modulidan mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida o'zlashtirish; amaliy mashg'ulotlar uchun topshirilgan mavzuni axborot resurs manbalaridan foydalangan, rasmiy statistika ma'lumotlarini to'plagan holda bajarish.

Tinglovchi mustaqil ishni tashkil etishining mazmuni “Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti” modulining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagilarga asoslanib tayyorlanishi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

-tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan modul bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish.

2) Mustaqil ta’lim mavzulari.

1. Iqtisodiy faoliyatning asosiy kategoriyalari.
2. Institutsion birlik.
3. Korxonalarining qanday faoliyat turlari.
4. Notijorat muassalarining qanday asosiy turlari.
5. Institutsional birliklarning rezidentlik statusi.
6. Mamlakatning rezidenti va norezidenti.
7. Ishlab chiqarish birligi ko‘rsatkichlari.
8. Vozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni sektorlarga klassifikatsiyasi.
9. Milliy hisoblar tizimining mohiyati nimada va uning qanday asosiy xususiyatlari.
10. 1993 yilda qabul qilingan MHT da xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar qanday institutsional sektorlarga ajratilgan?
11. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy faoliyat natijalari ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash usullari.
12. MHT ning muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari orasidagi bog‘lanishlar.

VII. GLOSSARIY

Iboralar	O‘zbek tilidagi izohi	Ingliz tilidagi izohi
Foyda va aralash daromadlar	– yalpi qo‘shilgan qiymatning bir qismi bo‘lib, u ishlab chiqaruvchilar ixtiyorida ish haqi, ishlab chiqarish va import solig‘ini to‘lagandan so‘ng qoladi. Bu modda mulkdan olgan daromadni hisobga olmagan holda ishlab chiqarishdan olingan foyda yoki zarar summasini ifodalaydi. Bu uy xo‘jaliklariga qarashli nokorparativ korxonalarda bu mulk egasi va tadbirkor daromadidan ajratib bo‘lmaydigan mehnat uchun to‘lovlar elementini ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun uni aralash daromad ham deyiladi.	
Tarmoqlararo balans	– MHTning muhim bo‘limi bo‘lib, uning yordamida tarmoqlararo aloqalar, oraliq iste‘mol, tarmoqlar ishlab chiqarishi va talabi orasidagi murakkab bog‘lanishlar tadqiq qilinadi.	
Foyda	– korxonalar va tijorat tashkilotlarining ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasi. Balansdagi foyda korxonaning mahsulot (xizmat) larini, ortiqcha asosiy fondlarning va boshqa mulklarni sotishdan oladi. Sotishdan tashqari operatsiyalardan olingan daromadlar (zarardan tashqari) Ham shu ko‘rsatkich tarkibiga qo‘shiladi.	
Uy xo‘jaligi	– umumiy yashash sharoitlarini va ayrim tovar va xizmatlarni birgalikda iste‘mol qilish uchun o‘z daromadlarini va moddiy boyliklarini birlashtirgan shaxslar guruhi.	
To‘xtovsiz inventarizatsiya usuli	– asosiy fondlarning tiklashdagi bahosini aniq‘lash uchun (u yoki bu kunga nisbatan). Buning uchun baho indeksleri yordamida investitsiyalarning tiklashdagi bahosi aniqlanadi.	
Milliy hisoblar	– buxgalteriya schyotiga o‘xshash formadagi jadvallar tizimi bo‘lib, u YaIMni ishlab chiqarish, taqsimlash va oxirgi foydalanish jarayonini xarakterlaydi.	
Milliy Hisoblar tizimi (MHT)	– makro darajada bozor iqtisodiyotini yoritish va tahlil qilish uchun foydalaniladigan o‘zaro bog‘langan ko‘rsatkichlar va tavsifnomalar tizimi. Uning asosida yirik iqtisodchi olimlar D. Keyis, Dj. Xiks tomonidan yaratilgan siyosiy iqtisod yo‘nalishlari yotadi.	
Iqtisodiyot aktivlari	– ob‘ektlar bo‘lib, ularga institutsion birliklar yakka holda yoki jamoa bo‘lib egalik qilish huquqiga ega bo‘ladilar. Ularning egalari ma‘lum vaqt davomida ularga egalik qilishdan yoki ulardan foydalanishdan iqtisodiy naf ko‘radilar. Iqtisodiy aktivlar-moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarga bo‘linadi. Nomoliyaviy aktivlarga ishlab chiqarilgan (asosiy fondlar, material aylanma mablag‘lar, boyliklar) va ishlab chiqarilmagan (yer, yer osti qazilma boyliklar, o‘rmon resurslari,	

	patentlar, litsenziyalar va h.k.) aktivlar kiradi. Moliyaviy aktivlarga ega monetar oltin, mavjud pul va depozitlar, qimmatli qog'ozlar, ssudalar, debitor va kreditor qarzlari kiradi.	
Barcha turdagi iqtisodiy faoliyatlarning xalqaro andozalar asosida tasniflash	– makroiqtisodiy statistikaning muhim tasniflaridan biri hisoblanadi. Bunday tasniflash birligi qilib alohida korxonalar yoki muassasa olinadi va ular ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki harajatlar tarkibi, yohud qo'yilayotgan texnologiyalari bir xil bo'lgan taqdirda ayrim tarmoqlarga birlashtiriladi.	
MHT ta'rifiga asosan jamg'arish	– bu barcha moliyaviy (mavjud pul mablag'lari, depozitlar, qimmatli qog'ozlar, zayomlar, kreditlar va h.k.) aktivlarni va material aktivlarni o'sishini anglatadi.	
Rezidentlar	– nisbatan uzoq vaqt davomida hududida iqtisodiy qiziqishi bo'lgan institutsion birliklar (korxonalar, tashkilotlar, uy xo'jaliklari va h.k.lar).	
Yalpi ichki mahsulot deflyatori	- yalpi ichki mahsulot uchun aniqlangan baho indeksi; Uni aniqlash uchun yalpi ichki mahsulot qiymat indeksini, YaIMning fizik hajm indeksiga nisbatan olinadi.	
Yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ)	- alohida olingan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, tarmoqlar va iqtisodiy sektorlarning faoliyati natijasi bo'lib, uning hajmi yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'moli orsidagi farqga teng.	
Fisher indeksi	– Laypeyres va Pashe indekslari asosida tortilgan o'rtacha geometrik sifatida hisoblanadigan indeks. U YAQM xalqaro miqyosida solishtirishda keng qo'llaniladi	
Transfertlar	– daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlashni ifodalaydigan ko'rsatkich; U bir institutsional birlik tomonidan ikkinchisiga tekinga berilgan pullar, tovarlar, xizmatlar yoki aktivlarni ifodalaydi. Ular joriy va doimiyga yoki pul formadagi va natural formadagi transfertlarga bo'linadi.	
Subsidiyalar	– joriy to'lovsiz, qaytarilmaydigan to'lovlar bo'lib, ular davlatni boshqarish organlari tomonidan ma'lum iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun qilinadi: mahsulotlar va importga subsidiyalar, ishlab chiqarishga subsidiyalar va h.k	
Rentabellik	– korxonalar faoliyatining foydalik darajasi. Uning to'rt xil ko'rsatkichi mavjud: korxonalar aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko'rsatkichini korxonalar aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.	

Oxirgi iste'mol uchun qilingan harajatlar	<p>– uy xo'jaligi a'zolari rezidentlarning iste'mol tovarlari va xizmatlar sotib olish uchun qilingan harajatlari, shuningdek davlatni boshqarish organlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning yakka tartibli va jamoa is'temoli uchun qilgan harajatlari yig'indisi. Harajatlarni bunday guruhlash oxirgi iste'molni kim tomonidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi.</p>	
Oxirgi iste'mol uchun qilingan harajatlar	<p>– uy xo'jaligi a'zolari rezidentlarning iste'mol tovarlari va xizmatlar sotib olish uchun qilingan harajatlari, shuningdek davlatni boshqarish organlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning yakka tartibli va jamoa is'temoli uchun qilgan harajatlari yig'indisi. Harajatlarni bunday guruhlash oxirgi iste'molni kim tomonidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi.</p>	

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'oriy-huquqiy xujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2015. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘ricida”gi qonuni. – T., 2021 yil, 3 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “2022-2026 yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31 avgust 2020 yil.

II. Maxsus adabiyotlar.

1. Abdullaev A. i dr. Методы социально-экономического прогнозирования. – T.: Uzbekistan, 1992. – 189 c.
2. Asamutdinov X. Ijtimoiy sohalardagi islohotlar //O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2003, №8-9. – 50 b.
3. Bayxonov B.T. O‘zbekiston Respublikasida sanoat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalarning ekonometrik tahlili. // Development Prospects of economic Cooperation Between Uzbekistan and China / - Ch/: - 2016 – 196-199 b.
4. Biryukova YE.A., Gorina A.R. Semi s detmi v Rossii: uroven jizni i politika sotsialnoy podderjki, Doklad NIU VSHE. –M.: 2019- 119 s.
5. Drobozinoy L. Финансы. - M.: Yuniti 2001. – 253 b.
6. G‘oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi.–T.: Adabiyot jamg‘ar-masi nashriyoti, 2004, – 104 bet.
7. Nabixo‘jaev A.A., Nasritdinova Sh.S., Sayfullaev S.N., Umarova M.A. Moliyaviy dasturlash. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2012. – 212 b.
8. N.M.Xarchenko, Ekonomicheskaya statistika. Uchebnik. – M.: Dashkov i K, 2010. – 368 str.
9. Statistika finansov. Uchebnik. / Pod red. M.G. Nazarova. – M.: Omega-L, 2010. – 516 str.

III. Internet saytlari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. www.press-service.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz

5. www.tdiu.uz
6. www.lex.uz
7. www.stat.uz
8. www.mf.uz
9. www.soliq.uz
10. www.infocom.uz - Infocom.uz elektron jurnali.
11. <http://learnenglishkids.britishcouncil.org/en/>
12. <http://learnenglishteens.britishcouncil.org/>